- transkripsiya prinsiplarini o'zlashtirib olish va milliy tilning asosi bo'lgan shevalar, ularning dialektal xususiyatlari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini xususiyatlarini tushuntirib bera olish darajasida **bilishi**;
- turli metodlarda, ayniqsa, qiyosiy metod bilan shevalarni o'rganish, muayyan bir sheva haqida to'la ma'lumot berish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;
- talaba kelgusida o'quvchilar nutqida uchrashi mumkin bo'lgan dialektal xatolarni ilg'ay olishi va zarur o'rnlarda ularni tuzatish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Kursning tematik tarkibi va mazmuni				
T/r	Mavzu	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil ish
	1-semestr			

1	Kirish. “O‘zbek dialektologiyasi” fanining maqsad va vazifalari	2	-	-
2	O‘zbek shevalari tasnifi. O‘zbek shevalarining o‘rganilish tarixi. Shevalarni tadqiq qilish usullari	2		6
3	Transkripsiya. Transkripsiya turlarini izohlash va tavsiflash. Transkripsiyyadagi matnlarni o‘qish va yozish	2	4	4
4	O‘zbek shevalari fonetikasi. O‘zbek shevalarida unlilar va undoshlar tizimi. Sheva matnlaridagi fonetik xususiyatlarni, shuningdek, y-, dj-, o-, a-lashishni matnlar tahlilida aniqlash	2	4	2
5	Fonetik qonuniyatlar. O‘zbek shevalaridan yozib olingan matnlarda uchraydigan fonetik qonuniyatlar ustida ishslash	2	2	4
Joriy nazorat				
6	O‘zbek shevalari leksikasi. Sheva matnlari yuzasidan leksik tahlil. O‘zbek shevalaridan yozib olingan matnlarda so‘zlarni tarixiy va zamonaviy qatlampga ko‘ra tahlil qilish. Dialektal so‘zlarni semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish	2	4	6
	Oraliq nazorat			

7	O'zbek shevalari morfologiyasi va sintaksisi. Sheva matnlaridagi morfologik o'ziga xosliklar. Kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalarini izohlash. Shevalarda modal shakllarning qo'llanishi. Sifat, son, olmosh va ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning shevalarga xos o'zgachaliklari. O'zbek shevalarida fe'l zamonlarining o'ziga xos xususiyalarini tahlil qilish. Fe'lning vazifadosh shakllari. Shevalarida so'z yasalishidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash. Shevalar sintaksisi. Shevaga oid matnlardagi sodda va qo'shma gaplarni hamda undalmalarni tavsiflash	2	2	2
Joriy nazorat				
8	Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari. Qarluq lahjasidagi matnlar tahlili	2	2	2
	Qipchoq, o'g'uz lahjalari ning muhim xususiyatlari. Qipchoq lahjasidagi matnlar tahlili. O'g'uz lahjasidagi matnlar tahlili	2	4	4
9	Areal lingvistika	2	-	4
Oraliq nazorat				
10	Adabiy til va dialekt	2	2	-

	munosabati. Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlarini aniqlash			
11	Yakuniy nazorat			
19	Jami $58+36=94$	22	36	36
	Yakuniy nazorat (YN)			
20	1-semestr bo'yicha jami:	94		

Ta'lim berish va o'qitish uslubi:	Ma'ruza, amaliy mashg'ulolar, mustaqil ishlar
Mustaqil ishlar:	Taqdimot, loyiha, referat va ma'ruza va h.k.
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqtisi:	Kunlar Seshanba Vaqti 11:00 Ayd. 4-14
Bilimlarni baholash usullari, mezonlari va tartibi	
JN va ONning ballari ishchi dasturda beriladi	
Baholash usullari	Testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar va h.k.
Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Baholash turlari fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov yoki boshqa ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.
Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash mezoni	
Ball	Talabaning bilim darajasi
86-100 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talaba mashg'ulotlarga doimo tayyorlangan, juda faol dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qiladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi; - talaba ijodiy masalalarini hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarni topa oladi, o'quv materialining mohiyatini tushunadi; - talaba taqdim etilgan o'quv masalalarining yechish yo'llarini izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi.
71-85 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talaba o'rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilishi hamda ob'ektni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarini sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergen holda yecha oladi, o'rganilayotgan nazariy bilimlarni

	<p>amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - bilim va ko'nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir tipdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi; - talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, dastur materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega.
55-70 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi; talaba qator belgilar asosida ma'lum ob'ektni farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialini tushuntirib beradi va tasavvurga ega.
0-54 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talaba tasavvurga ega emas; - talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.

Fanga doir video ma'ruzalar, video roliklar:

Glossariylar:

Axborot resurs baza:

Reyting nazorati va baholash mezonlari

№	Reyting nazorat shakli, maksimal ballari	1-JN	2-JN	1-ON	2-ON	YaN	Ballar yig'indisi
		15	15				
1.	Maksimal ball	20	20	15	15	30	100
2.	Shakli	yozma	og'zaki	test	yozma	yozma	
3.	Muddati (haftalarda)	8	17	13	19	20	

ASOSIY QISM

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASIGA KIRISH

1-modul. Kirish. «O'zbek dialektologiyasi» fanining maqsad va vazifalari

“O'zbek dialektologiyasi” fanining “O'zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha pedagoglar tayyorlashdagi ahamiyati. “O'zbek dialektologiyasi” kursining turlari, O'zbek shevalari milliy tilning quyi bosqichi, o'zbek tilining asosi ekanligi. Tilshunoslikda sheva, dialect, lahja terminlari definitsiyasi. O'zbek tilining dialectal tarkibi va ular murakkabligining ijtimoiy va tarixiy interpretatsiyasi. O'zbek dialektologiyasining hozirgi o'zbek adabiy tili, til tarixi, xalq tarixi, geografiya fanlari bilan munosabati.

2-modul. O'zbek shevalari tasnifi

O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar: hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy-hududiy (lingvoareal). O'zbek shevalari tasnifi. Ularning yutuq va kamchiliklari.

3-modul. Transkripsiya

Transkripsiya turlari. Fonetik va fonologik transkripsiya. Xalqaro transkripsiya. Transliteratsiya. Milliy transkripsiya. Turkiy tillar va lahjalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar. O'zbek shevalarini o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsiylar. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvidagi transkripsiylaga xos xususiyatlar.

4-modul. O'zbek shevalari fonetikasi

O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi. O'zbek shevalaridagi va o'zbek adabiy tilidagi unlilar munosabati. O'zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o‘ziga xos jihatlari.

5-modul. Fonetik qonuniyatlar

Singarmonizm qonuni va uning turlari. Umluat. O'zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o‘zgarishlari va turlari. Birlamchi, ikkilamchi cho‘ziqlik va emfatik (ul’tra) cho‘ziqlik. Monoftong va diftong. Tovush mosligi. Fonetik jarayonlar.

6-modul. O‘zbek shevalari leksikasi

O‘zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo‘lgan qarashlar. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari. Shevalarning o‘z so‘zlari. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so‘zlari va jargonlar.

7-modul. O‘zbek shevalari morfologiyasi va sintaksisi

O‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlari. O‘zbek adabiy tilidagi va o‘zbek shevalaridagi turlanishning farqi. Grammatik son, kelishik, egalik, shaxsson, mayl, zamon kategoriyalariga xos shakllar, fe’lning funksional shakllarining shevalardagi o‘ziga xosliklari. So‘z yasalishi va sintaksis. Shevalarda so‘z birikmalari, izofali konstruksiyalar, to‘liq va to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplarning qo‘llanish xususiyatlari.

8-modul. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining muhim xususiyatlari

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

9-modul. Qipchoq, o‘g‘uz lahjalarining muhim xususiyatlari

Qipchoq, o‘g‘uz lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

10-modul. Areal lingvistika

Areal lingvistikaning til va shevalarni o‘rganish usullari. Izoglossa tushunchasi. Dialektal xarita va atlas, uning yaratilish tarixi va ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning vujudga kelishi va rivojlantirilishi.

11-modul. Adabiy til va dialekt munosabati.

Sheva, milliy til va adabiy til. Badiiy asarlardagi dialektizmlar va ularning turlari. O‘zbek dialektologiyasi fanining til va adabiyot o‘qituvchilari uchun ahamiyati. Dialektal xato tushunchasi, ularni bartaraf etish yo‘llari. Dialektizmlarning adabiy tilga singish jarayoni. Avtonomiya va geteronomiya. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida alohida – alohida mustaqil rivojlanishi, yozuvdagi farqlar, adabiy me’yorlarning o‘ziga xosligi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy mashg‘ulotlarni bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqola va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, o‘tilgan mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash.

Amaliy mashg‘ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Transkripsiya. Transkripsiya turlarini izohlash va tavsiflash. An‘anaviy transkripsiadagi matnlarni o‘qish va yozish
2. Transkripsiya. Yangi transkripsiadagi matnlarni o‘qish va yozish.
3. O‘zbek shevalarida unlilar va undoshlar tizimi
4. Sheva matnlaridagi fonetik xususiyatlarni, shuningdek, y-, dj-, o- alashishni matnlar tahlilida aniqlash
5. O‘zbek shevalaridan yozib olingan matnlarda uchraydigan fonetik qonuniyatlar ustida ishlash
6. Sheva matnlari yuzasidan leksik tahlil. O‘zbek shevalaridan yozib olingan matnlarda so‘zlarni tarixiy va zamonaviy qatlamga ko‘ra tahlil qilish
7. Dialektal so‘zlarni semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish
8. Sheva matnlaridagi morfologik o‘ziga xosliklar. Kelishik, egalik va ko‘plik qo‘sishchalarini izohlash
9. Shevalarda modal shakllarning qo‘llanishi
10. Sifat, son, olmosh va ravish, ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarning shevalarga xos o‘zgachaliklari
11. O‘zbek shevalarida fe’l zamonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish
12. Fe’lning vazifadosh shakllari
13. Sheva matnlarida uchraydigan so‘z yasalishini qayd etish va izohlash
14. Shevalar sintaksi. Shevaga oid matnlardagi sodda va qo‘shma gaplarni hamda undalmalarni tavsiflash
15. Qarluq lahjasidagi matnlar tahlili.
16. Qipchoq lahjasidagi matnlar tahlili
17. O‘g‘uz lahjasidagi matnlar tahlili
18. Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlarini aniqlash

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

“O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikning amaliy masalalarni hal qilishda ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘sishcha adabiyotlarni o‘rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referat va ilmiy doklad tayyorlaydilar, amaliy mashg‘ulot mavzusiga doir uy vazifalarini

bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

8. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.

9. Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanning boblari va mavzularini o'rganish.

10. Tanlangan sheva bo'yicha materiallarni tahlil qilish.

11. Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash.

12. Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lган mazkur fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

13. Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilaniladigan o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish.

14. Masofaviy (distansion) ta'limni tashkil etish.

Mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular

19.O'zbek shevalarining o'rganilish tarixi.

20.Shevalarni tadqiq qilish usullari

21.O'zbek shevalari tasnifi.

22.Transkripsiya va uning turlari.

23.Transkripsiyanı o'zlashtirish va sheva materiallarini qayd etish.

24.Shevaga xos matnlarning fonetik xususiyatlari.

25.Shevalarda fonetik hodisalar.

26.Fonetik qonuniyatlar.

27.Ma'lum bir sheva lug'atini tayyorlash.

28.Shevaga oid matnlarning leksik xususiyatlari.

29.Shevalararo moslik (variant) masalasi.

30.Shevaga oid matnlarning morfologik xususiyatlari.

31.Shevaga oid matnlarning sintaktik xususiyatlari.

32.O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga xos xususiyatlar.

33.O'zbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar.

34. O'zbek tilining o'g'uz lahjasiga xos xususiyatlar.

35.O'zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning vujudga kelishi va rivojlantirilishi.

36.O'zbek shevalari dialektologik atlasi ustida ishslash.

Dasturning axborot- uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida zamonaviy (xususan interaktiv) metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentasion, elektron-didaktik) texnologiyalarni qo'llash nazarda tutiladi. Jumladan:

- o'zbek shevalarining o'ziga xos xususiyatlari, tabiatli bilan bog'liq bo'lган ma'ruba mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'zbek shevalari fonetikasi, o'zbek shevalari leksikasi mavzusida

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda kichik guruhlarda musobaqalar tashkil qilish diskursiv tahlil, kartografiya, mantiqiy bo‘laklash metodlari va “Aqliy hujum”, “Hamkorlikda ishlash”, “FSMU”, “Klaster”, “Keys stadi”, ”Blits” va boshqa texnologiyalar qo‘llaniladi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati **Asosiy adabiyotlar**

6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
7. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
8. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
9. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
10. Ashirboyev S.O‘zbek dialektologiyasi. – T.:”Navro‘z”, 2016.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Aliyev A.Yu., Nazarov K.N. O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: 1976.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi (Yangi o‘zbek yozuvida). – Toshkent: 2011.
3. Begaliyev M.Q. O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
4. Dialectology. J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press.- 2004.
5. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: 1991.
6. Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va dialektlari. – Toshkent: Fan, 1963.
7. Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977.
8. Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2005.
9. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent: Muharrir, 2011.
10. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
11. Reshetov V.V. O‘zbek dialektlarini monografik o‘rganish // O‘TA.1960. 1-son.
12. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1962.
13. Reshetov V.V. O‘zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O‘TA, 1966.
14. Shoabdurahmonov Sh.Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1962.
15. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? – Toshkent: Fan, 1981.
16. Shoimova N. Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi. – Qarshi: Nasaf, 2000.

17. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. 1-qism. – Toshkent: Fan, 1957.
18. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. 2-qism. –Toshkent: Fan, 1960.
19. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.
20. O‘zbek shevalari leksikasidan materiallar to‘plash uchun so‘roqlik. – Toshkent: Fan, 1989.
21. O‘zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1984.
22. O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1966.
23. O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1991.
24. O‘zbek dialektologiyasi. O‘UM, O‘zMU 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.

Internet saytlari

1. www.turk_dili.google.com.tr
2. http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘icha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniq lash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida q o‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- Ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda q o‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgantushunchalarning t o‘gri va t o‘liq izohin o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarini hal etishda hamda o'quv jarayonini babs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

- **F** – fikringizni bayon eting
- **S** – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
- **M** – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
- **U** – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Transkripsiyaning qo'llanishiga ko'ra turlari.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Transkripsiyaning vazifasiga ko'raturları.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishga yordam beradi. Bunda mavzular, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib “v”, “+”, “-”, “?” belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

- (v) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.


Tushunchal				
Transkripsiya				
Transliteratsiya				
Translvatsiya				
Fonetik transkripsiya				
Fonologik				
Diakritik belgi				

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumotlar zarur.

“Tarmoqlash” metodi


(Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi, talabalarni mavzuga talluqli tushuncha yoki fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.



VENN DIAGRAMMASI

Strategiya o‘quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.




BLITS O'YINI «MENIMCHA TO'G'RI TOPDIM»

1	2	3	4
Misollar	Talabaning javobi	To'g'ri javob	Javob uchun ajratilgan ball
<i>pъsək-tosh</i>			
<i>nerə-nega</i>			
<i>chəkъch-nonpar</i>			
<i>Dykъ-chovli</i>			

<i>Qarndja -chumoli</i>			
<i>morcha-o'rgimchak</i>			
<i>mətəl-ertak</i>			
<i>chopchəy-hikoya</i>			
<i>shətb -narvon</i>			
<i>buvək-chaqaloq</i>			
<i>Mehnatingiz mahsuli muborak bo'lsin!</i>			

O'yin qoidasi: 1- ustunda berilgan misollarda leksik moslik mavjud bo'lgan so'zlarni aniqlang. 2-raqam ostidagi kataklarda talaba javoblari beriladi. Bu talaba har bir to'g'ri deb bilgan javobiga «+», noto'g'ri deb bilgan javobiga alomatlarini qo'yib boradi. 3-raqam ostidagi kataklarda o'qituvchi tomonidan aytilgan to'g'ri javoblar belgilanadi. Bunda ham «+», «-» alomatlarini foydalaniladi. 4-raqam ostidagi kataklarda esa har bir to'g'ri topilgan javob uchun 0.1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball belgilanadi va bu ballar javob uchun ajratilgan ballar ustuniga qo'yib boradi. Talaba ishni nihoyasiga etkazgach bosh umumlashtiriladi. Talaba barcha javoblarni to'g'ri topsa 5 ballni qo'lga kiritadi. Har bir mashg'ulot uchun ajratilgan eng yuqori ball 5 balni tashkil etadi. *O'zbek shevalari leksikasining mavzuiy guruhini o'rgatish jarayonida "Baliq skleti" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.*

«Baliq skleti» texnologiyasi



Ushbu texnologiya sheva leksikasi mavzuiy guruhini tahlil qilishga qaratilgan. Yuqori qismida mavzu guruhlar turi yozilsa, pastki qismida esa ularga doir so‘zlar yozilib, misollar bilan izohlanadi.

MA’RUŽA MATERIALLARI

1-Mavzu: Kirish. O‘zbek dialektologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. Sheva, dialekt va lahja tushunchalari.
2. O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.
3. O‘zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.
4. O‘zbek dialektologiyasining nazariy va amaliy ahamiyati.
5. O‘zbek shevalarini o‘rganish metodlari.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning siyosiy va milliy istiqlolga erishganiga ham 25 yilto‘ldi.O‘zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgarganligi barchaga ma'lum. O‘zbek tili ham milliy qadriyatlar tizimining bir bo‘lagidir. Adabiyotlarda milliy tilning quyi bosqichi sifatida uning shevalari tilga olinadi. Aslida ona tili deganda shevani tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida “O‘zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi.O‘zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til katta hissa qo‘sheganini alohida ta‘kidlash tabiiydir. Shu borada Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o‘rin egallaganini qayd etish joiz” deyiladi.

“O‘zbek dialektologiyasi” ijtimoiy lingvistika fanlaridan biri bo‘lib, o‘zbek shevalarini o‘rganadigan fandir. **Dialektologiya** so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma’noni bildiradi. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o‘rganadi.

Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan beba ho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni

boyitish, nufuzini oshirishni o‘zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e’tiborimizdan chetda qolmasligi zarur”.

Shuning uchun ham uni - asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz I. A. Karimovning: “*Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir*¹”, – degan so‘zlarini eslash o‘rinlidir. Demak, shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan so‘z emas.

O‘zbeklar hozirgi O‘zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, Afg‘oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Xitoy Uyg‘uristonidava boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladilar. Albatta, ularning tili o‘zbek tili bo‘lsada, o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga ham molikdir. Bu fanni o‘rganishdan maqsad o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari – fonetik, leksik, morfologik va, qisman, sintaktik xususiyatlari haqida talabalarga to‘la ma’lumot berishdir. Bu esa quyidagi vazifalarni keltirib chiqaradi:

- talabalarga o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tayanch bilimlarni berish va shu asosda tayanch tushunchalar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish;
- o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik qurilishi haqida ma’lumot berish;
- shevalarni o‘rganish metodlari to‘g‘risida tushuncha berish hamda sheva vakillaridan ma’lum bir sheva xususiyatlarini yozib olish malakasini hosil qilish;
- adabiy til va sheva munosabatlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish; maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta’limida dialektal xatolarning oldini olishga nazariy tayyorlash.

Har bir tilning shevalarini o‘rganuvchi fan **tasviriy dialektologiya** deb yuritiladi. O‘zbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir. Bu fan boshqa fanlarni, shu jumladan til tarixini o‘rganishda zaruriy manba ekanligini hisobga olsak, bu jarayonda tarixiy dialektologiya to‘g‘risida ham fikr yuritish

¹Каримов И. Ватан ва ҳалқ мангу ғолади. – Тошкент: Алиишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – Б.123.

lozim bo‘ladi. Tilning rivojlanishi ayni o‘rinda shevalarning ham tarixiy rivojlanishi hisoblanadi. Bu esa **tarixiy dialektologiyani**ng tekshirish obyektiidir. O‘zbek tilshunosligida tarixiy dialektologiya endigina shakllanib kelmoqda.

Tarixiy dialektologiya tilning dialektal xususiyatlari bilan birga shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davrlarda o‘zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham o‘rganadi, lahja va shevalarni lingvo-geografik usullar bilan o‘rganish ham, birinchi navbatda, tarixiy maqsadlarni ko‘zda tutadi.


Shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli ma’lumotlar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan yoki ma’lum darajada o‘zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik shakllar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo‘ishi mumkin. Bu jihatdan dialektologiya til tarixini o‘rganish uchun juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi ham o‘zbek adabiy tili tarixini o‘rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir. Qadimiylar o‘zbek yozma yodgorliklarining biz uchun noaniq bo‘lgan ayrim xususiyatlarini hozirgi zamon o‘zbek shevalarini o‘rganish bilan (shu sheva materiallari yordamida)aniqlashimiz to‘ldirishimiz mumkin. Dialektlarni o‘rganish ham ilmiy, ham amaliy ahmiyatga ega. Shevalarni o‘rganish o‘zbek adabiy tilining fonetik leksik-grammatik meoyerlarini belgilash uchun, shuningdek, o‘zbek orfografiya va orfoepiyasini mo‘otadillashtirish uchun ham katta yordam beradi.

Shevalarni o‘rganish xalq tarixi, etnografiyasi uchun muhimdir. Masalan, shevalarni o‘rganish orqali o‘tmishdagi urug‘-qabilalarning joylashish huđudlarini aniqlash, toponimlar, gidronimlar va shu kabi nomlar vositasida xalq tarixinining ayrim lavhalarini yaratmoq mumkin bo‘ladi.

1. Sheva, dialekt va lahja tushunchalari. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda **sheva, dialekt, lahja** degan terminlar qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish albatta zarur.

Sheva forscha ravish, tarz, yo ‘sin degan ma’nolarni bildirib, fanda o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi (1-rasm).



Dialekt so‘zi yunoncha bo‘lib, *sheva* degan ma’noni anglatib (aslida **qabila tili** demakdir), aksariyat til xususiyatlari o‘xhash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi.

Lahja arabcha so‘z bo‘lib ù ham *ravish*, *tarz*, *yo’sin*, *sheva* ma’nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o‘zbek tilining taraqqiyotiga asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng yirik to‘dasini anglatadi.

Mashhur ingliz dialektologlari K.Chambers, Piter Trudgill o‘zining ”Dialectology“ kitobining ”Language and etnik group“ (Til va etnik guruhlar) bo‘limida ma’lumot beradi. Tildagi lahjalarning farqlanishi boshqa tillarda, jumladan, ingliz tillarida ham kuzatiladi, bunda, albatta, etnik guruhlar tilining tarixiy taraqqiyoti natijasidir².


Language and ethnic group

In many communities, different ethnic groups speak different languages.

What is more interesting for our purposes, however, are cases where different ethnic groups speak the same language but differ quantitatively or qualitatively in their use of particular variables.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular: *qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasи*, *qipchoq lahjasи*, *o‘g‘uz lahjasидир* (2-rasm).


²J.K.Chambers, Piter Trudgill. Dialectology.–Cambridge.2004. 63 p.



Lahja termini o'zbek, turk tillarida iste'molda bor, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida *dialekt va sheva (гөсөп)* terminlariga ko'proq murojaat qilinadi.

Bir dialect tarkibidagi shevalarda o'zaro bog'langan, lekin kichik va muhim bo'lgan farqlar bo'ladi, uni 3-rasmdan anglab olish mumkin.

Shevaning farqlanishi



1 – Beshyog‘och dahasida: - *bɔrsəmbz*.

2 – Xadra dahasida: - *bɔrsovuz*.

3 – Chorsu dahasida: - *bɔrso://bɔrsok*.

4 – Eski Jo‘va dahasida: -*bɔrso:vuzə*

G‘arb dialektologiyasida bu mazmunda til, dialect va accent terminlaridan foydalaniladi. Ularda lahja tushunchasi qatnashmaydi. Accent tushunchasi sheva bilan ekvivalent bo‘lsa, dialect accentlarni birlashtiradi³.

Language, dialect and accent

It seems, then, that while the criterion of mutual intelligibility may have

some relevance, it is not especially useful in helping us to decide what is and is not a language. In fact, our discussion of the Scandinavian languages and German suggests that (unless we want to change radically our everyday assumptions about what a language is) we have to recognise that, paradoxically enough, a ‘language’ is not a particularly linguistic notion at all. Linguistic features obviously come into it, but it is clear that we consider Norwegian, Swedish, Danish and German to be single languages for reasons that are as much political, geographical, historical, sociological and cultural as linguistic. It is of course relevant that all three Scandinavian languages have distinct, codified, standardised forms, with their own orthographies, grammar books, and literatures; that they correspond to three separate nation states; and that their speakers consider that they speak different languages. The term ‘language’, then, if from a linguistic point of view a relatively nontechnical term. If therefore we wish to be more rigorous in our use of descriptive labels we have to employ other terminology. One term we shall be using in this book is variety. We shall use ‘variety’ as a neutral term to apply to any particular kind of language which we wish, for some purpose, to consider as a single entity. The term will be used in an ad hoc manner in order to be as specific as we wish for a particular purpose.

We can, for example, refer to the variety ‘Yorkshire English’, but we can equally well refer to ‘Leeds English’ as a variety, or ‘middle-class Leeds English’ – and so on. More particular terms will be accent and dialect. ‘Accent’ refers to the way in which a speaker pronounces, and therefore refers to a variety which is phonetically and/or phonologically different from other varieties. ‘Dialect’, on the other hand, refers to varieties which are grammatically (and perhaps lexically) as well as phonologically different from other varieties. If two speakers say, respectively, *I done it last night* and *I did it last night*, we can say that they are speaking different dialects.

³.K.Chambers, Piter Trudgill. Dialectology, Cambridge university press,2004, p.-4

The labels ‘dialect’ and ‘accent’, too, are used by linguists in an essentially ad hoc manner. This may be rather surprising to many people, since we are used to talking of accents and dialects as if they were well-defined, separate entities: ‘a southern accent’, ‘the Somerset dialect’. Usually, however, this is actually not the case. Dialects and accents frequently merge into one another without any discrete break.

Dialektologiyada ikki xildagi dialekt to‘grisida fikr yuritish mumkin, ya’ni ***mahalliy dialektlar*** va ***ijtimoiy dialektlar***. Mahalliy dialekt umumxalq (milliy) tilining muayyan territoriyaga oid ko‘rinishi, o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir. O‘zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bu atama boshqa manbalarda “sotsial dialect” nomi bilan yuritiladi.

Ya’ni mahalliy dialekt muayyan dialektning ijtimoiy muhiti, uning tarixiy rivojlanishini o‘rganadi. Shu bilan birga shahar dialekti to‘g‘risida ham fikr yuritilib, shahar dialektini o‘rganishda qator muammolarning mavjudligi ko‘rsatiladi va tadqiqotlarni olib borishda shahar aholisi qatlamlari va ularning tarixini birga olib o‘rganish kerakligi aytildi.⁴ Bu muammolar o‘zbek tili shahar shevalarida ham kuzatilmoqda .

Urban dialects

It also gradually came to be realised that the focusing of traditional dialectology on rural dialects had led to an almost total neglect, in many countries, of the speech forms used by the majority of the population, namely those who lived in towns and cities. This was of course particularly true of heavily urbanised countries such as England, where perhaps 90 per cent of the population live in towns. Linguists and dialectologists remained ignorant about the way in which most people in England (and elsewhere) speak, and have therefore been missing out on a great deal of linguistic data. The feeling therefore developed that the study of urban dialects was not only an interesting but a necessary task. This development towards social and urban dialectology has to be seen in its historical context. The initial impetus for dialectological work, as we have seen, lay in comparative philology, and it was because of this historical emphasis that dialectologists had looked mainly to rural speech forms. Urban dialects were felt, correctly, to be less conservative.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so‘zlarga o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, o‘zgacha ma’no kasb etishlari yoki muayyan soha – kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o‘zlarigina

⁴K.Chambers, Piter Trudgill. Dialectology, Cambridje university press,2004, p.-45-46.

foydanishlari asosida vujudga keladi. Ular biror sheva yoki dialekt xususiyatiga teng emas. Ijtimoiy dialektda shevaga oid so‘zlar ham ba’zan qatnashishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijtimoiy dialektda o‘ziga xos fonetik va grammatic xususiyatlari bo‘lmaydi, lekin ayrim leksik xususiyatlari bo‘lishi mumkin.

O‘zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o‘rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar “til”i sotsiolingvistikating boshqa bo‘limlari ob’yeqtidir.

2. O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.

Proftssor E. D. Polivanov “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida(1933) o‘tgan asrning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma’lumot bergen edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir nechaomillarga borib taqaladi. Professor V. V. Reshetov o‘zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

Tariximizgaoi adabiyotlar qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risidaxabar beradi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq urug‘lari, qangli, qataq‘on urug‘ va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o‘ynagan.

O‘zbek tilining dialektal o‘ziga xosligida qadimgi urug‘ va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, territorial mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylilikni saqlab qolgan holda, boshqa territoriyada yashovchi o‘zbeklar tilidan ko‘pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan. Sheva va dialect xususiyatlarining tobora qat’iylashishiga aholi punktlarining bir-biridan uzoq joylashishi muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa bir til ichida turli shevalarning shakllanishiga olib kelgan.

Tarixchi olim K. Shoniyozirovning ko‘rsatishicha, qarluqlarva ularga qon-qardosh bo‘lgan chigil, xalaj qabilalari ile daryosi havzasida, Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg‘ona vohasiga tarqalgan keng territoriyada yashaganlar. Turgesh qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu territoriyalar qarluqlar tomonidan ishg‘ol qilingan. IX-X asrlarda o‘g‘uzlar Sirdaryoning quyi va o‘rtalari havzalarini hamda Orol bo‘ylarini ishg‘ol qilgan. Qipchoq qabilalari esa, asosan, Oltoy o‘lkasida, Irtish bo‘ylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston, Volga, Dunay daryolari bo‘ylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar.

O‘zbek tilida sheva va dialectlarning kuchli farqlanib qolganligiga o‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga turkiy va forsiy tilning kuchli ta’siri ham sabab bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistondagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz

tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o'zbek shevalariga tojik tilining ta'siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o'ziga xoslikni vujudga keltirmoqda.

Avvalgi satrlarda aytiganidek, o'zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga ba'zan qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, ya'ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singarmonizm har uchala (Markaziy shahar shevalarini hisobga olmaganda) lahjada uchraydi, shuningdek, unlilarning birlamchi cho'ziqliklari qarluq va o'g'uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

3. O'zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlarga aloqadorligi.

O'zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanlaridan biri sifatida, avvalo, "Hozirgi o'zbek tili" fani nazariy asoslariga tayanadi. Shuningdek, "O'zbek tili tarixi" fanining "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek adabiy tili tarixi" bo'limlari uchun ham nazariy, ham amaliy asos vazifasini bajaradi. Aksincha, o'zbek dialektologiyasi bu fanlarning nazariy va amaliy materiallariga asoslanadi. To'g'ri, tilshunoslikning bu fanlari o'quv rejalarida keyingi kurslardan joy olgan, demak, bu fanlar bo'yicha nazariy, amaliy ma'lumotlar o'zbek dialektologiyasi bo'yicha tegishli mavzularni mustaqil tayyorlash jarayonida, ulardan qo'shimcha ma'lumotlar olish chog'ida o'rganib boriladi.

"O'zbek dialektologiyasi" fani, ayniqsa, "O'zbek tili tarixi" fani bilan uzviy bog'langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o'zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o'laroq o'zbek tiliga asos bo'lgan shevalar hozirgi O'zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg'oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarda tarqalishi, so'zsiz, o'zbek tili tarixini o'rganishda o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Ta'kidlash lozimki, bizgacha yetib kelgan o'zbek tili manbalari o'z davrining adabi tilida yozilgan bo'lsa-da, ayni zamonda, o'sha davrning shevalariga xos xususiyatlarni ham aks ettirgan. Shuning uchun ham, turli hududlarda yaratilgan yozma yodgorliklarda dialektal o'ziga xosliklar namayon bo'ladi, chunki asar mualliflari yoki uni ko'chiruvchilar muayyan shevaning vakillari bo'lganligi tufayli ham, ular shevasi xususiyati u yoki bu tarzda asarlarda aks etmay qolmas edi. Bu holat til tarixi asarlarining o'ziga xosligini ta'minlagan.

Hozirgi sheva faktlari esa til tarixini tushunish uchun ham xizmat qiladi, chunki, avval aytiganidek, tilimiz tarixiga oid so'zlar, fonetik va grammatik unsurlar tamoman yo'qolib ketmaydi, balki u yoki bu darajada shevalarimizdan birida o'z ma'nosida yoki qismen ma'nosni o'zgaran shaklda saqlanib qoladi, bu esa til tarixidagi ayrim tushunchalarni oydinlashtirishga xizmat qilishi mumkin, masalan, "Devonu lug'atit turk" asaridagi *анац /анац* so'zi (qizlarni erkash shakli) Shimoliy o'zbek shevalarida, **атиз** (ekin maydoni) so'zi Xorazmda, **әвдәдь / әвдиди**(terdi) so'zi **әвдәдь / әвдиди** tarzida Shimoliy o'zbek shevalarida, **къзләдь / кизләди**(vashirdi) so'zi **әвзләдь / гизләди** tarzida Xorazmda va Shimoliv o'zbek

shevalarida hozir ham qo'llanadi. *Kəsiyp / käšür* so'zi "Devon"da *turpma*'nosini anglatgan bo'lsa, Xorazm shevalarida *gəsiyər / gäšir* variantida *sabzini* bildiradi. Demak, u qisman ma'no o'zgarishiga uchragan.

O'zbek dialektologiyasi **geografiya** fani bilan uzviy aloqador, ya'ni har bir sheva haqida ma'lumot to'planganda, shu sheva vakillari joylashgan territoriyaning ko'lami, aholisining miqdori, shu territoriya iqlimi va boshqa ma'lumotlar ham e'tiborga olinadi, ya'ni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, o'zbek dialektologiyasi o'zbek **xalqi tarixi, adabiyoti, folklori, etnografiyası, san'ati** fanlarining ma'lumotlariga ham tayanadi va, ayni o'rinda, ular uchun ham boy material beradi.

4. O'zbek dialektologiyasining nazariy va amaliy ahamiyati.

O'zbek dialektologiyasi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fandir. Bu fan bo'yicha olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta'kidlanganidek, keyingi kurslarda o'tiladigan fanlarga nazariy asos bo'lib xizmat qilsa, ayni zamonda, til va adabiyot o'qituvchilarini o'zbek dialektologiyasi bilimlari bilan qurollantirib, o'z pedagogik faoliyatida dialektal xatolar ustida ishlashga ham tayyorlaydi, ya'ni o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqida uchraydigan dialektal xatolarning manbalarini aniqlash va to'g'ri yo'l tutishiga yordam beradi.

5. O'zbek shevalarini o'rganish metodlari.

O'zbek shevalari *tasviriy (tavsfiy)*, *qiyosiy, qiyosiy-tarixiy*, *lingvistik geografiya* metodlarida o'rganib kelinmoqda.

Muayyan shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyalarini tuzilgan savolnomaga asosida tavsfif qilib chiqish asosida o'rganish *tasviriy (tavsfiy) metoddır*. Bunda o'zbek adabiy tili xususiyatlari asos qilib olinadi.

Shevaga xos xususiyatlar yondosh shevalarga, qarindosh tillaga qiyoslab o'rganilishi *qiyosiy metoddır*. O'zbek shevalarini o'rganishda, asosan, *tasviriy vaqiyosiy* metoddan foydalanilgan hamda boy boy material to'plangan.

O'zbek shevalarini o'rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan *qiyosiy-tarixiy metoddan* ham foydalanilgan. Bu metodga ko'ra, o'zbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, "Devonu lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o'rganib borilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab o'rindardagina va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi.

Shuningdek, shevalar *lingvistik geografiya* metodi bilan ham o'rganiladi (bu haqda "Areal tilshunoslik (Lingvistik geografiya)" mavzusida fikr yuritiladi).

Nazorat savollari

1. O'zbek dialektologiyasining maqsadi nimalardan iborat?

2. O‘zbek dialektologiyasining vazifasi nimalardan iborat?
3. O‘zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘langan?
4. O‘zbek shevashunsligining nazariy va amaliy ahamiyati?
5. Tasviriy dialektologiya nima?
6. Tarixiy dialektologiya nima?
7. Sheva deb nimaga ataladi?
8. Dialekt deb nimaga ataladi?
9. Lahja deb nimaga aytildi?
10. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi omillar bilan bog‘langan?
11. O‘zbek shevalari qaysi metodlar bilan o‘rganiladi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO‘Z, 2016.
2. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996 .
3. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.1.
4. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
5. J.K.Chamers, Piter Trudgill. Dialectology.Cambridge. 2004.

GLOSSARIY

O‘zbek dialektologiyasi [Uzbek dialectology] – o‘zbek shevalarini ilmiy ravishda o‘rganadigan fan.

Sheva [pronunciation, accent, dialect] – o‘zbektiliningkichik territoriyadagi muomala vositasi.

Dialekt[dialect]– o‘zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.

Lahja [dialect]– shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo‘lgan dialektlar jami.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjası [Karluk-chigil-uygur dialect]– o‘zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug‘-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Qipchoq lahjası [Kipchak dialect]– o‘zbek tilining qipchoq urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

O‘g‘uz lahjası [Uguz dialect] – o‘zbek tilining o‘g‘uz urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Tavsifiy (sinxron) metod [descriptive method]– shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Qiyosiy-tarixiy metod [comparative historical method] – tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa yondash tillarga qiyoslab o‘rganish metodi, bu metoddan shevalarni o‘rganishda ham foydalaniladi.

TEST SAVOLLARI

1. O‘zbek dialektologiyasining predmetini aniqlang:

- A.O‘zbek shevalarini o‘rganadi.
- B.O‘zbek dialektlarini o‘rganadi.
- C.O‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan shevalarni o‘rganadi.
- D.O‘zbek tilidagi sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganadi.
- E.O‘zbek lahjalarini o‘rganadi.

2. Sheva deb:

- A. O‘zbek tilining kichik territoriyasiga oid qismiga aytildi.
- B. O‘zbek tilining o‘ziga xos leksik xususiyatlariga oid bir qismiga aytildi.
- C. O‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik va grammatik xususiyatiga ega bo‘lgan qismiga aytildi.
- D. Sheva territorial tildir.
- E. O‘zbek tilining leksik fonetik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik qismiga aytildi.

3. O‘zbek adabiy tiliga berilgan to‘liq ta’rifni aniqlang:

- A. O‘zbek adabiy tili asrlar davomida bir qolipga tushgan, silliqlashgan tildir.
- B. O‘zbek adabiy tili milliy tilning yuqori bosqichi bo‘lib, so‘z san’atkorlari tomonidan sayqal berilgan, bir qolipga solingan tildir.
- C. O‘zbek adabiy tili leksik jihatdan barqaror, fonetik va morfologik jihatdan bir qolipga solingan milliy tilning yuqori bosqichidir.
- D. O‘zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, me’yorlashgan tildir.
- E. O‘zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatik jihatdan bir qolipga solingan, so‘z ustalari tomonidan silliqlangan tildir.

4. Dialekt deb:

- A. Bir-biriga teng bo‘lgan shevalar yig‘indisiga aytildi.
- B. Bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalarni bildiradi.
- C. Leksik, fonetik va morfologik xususiyatlari yaqin bo‘lgan shevalarni birlashtiradi.
- D. Dialektlar asosida shevalar paydo bo‘ladi.
- E. Leksik, fonetik va morfologik jihatdan yaqin bo‘lgan hamda o‘zbek tilining nisbatan kattaroq territoriyasiga oid qismiga aytildi.

5. Lahjaning ta’riffini aniqlang.

- A. Bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar jamidir.
- B. Bir-biriga yaqin bo‘lgan dialektlar jamidir.
- C. Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan dialektlarni birlashtiradi.
- D. Lahja - bu aslida til, sheva ma’nolarini anglatadi.
- E. Dialektlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi.

6. O‘zbek lahjalari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- A. O‘g‘uz, qipchoq, Jizzax.
- B. O‘g‘uz, qirg‘iz, Qoraqalpoq.
- C. O‘g‘uz, qipchoq, qarluq.
- D. O‘g‘uz, nayman, qarluq.
- E. O‘g‘uz, barlos, qipchoq.

7. O‘zbek shevalarining rang-barangligini quyidagi omillardan qaysi biri ta'minlagan?

- A. O‘zbeklarning etnik xususiyatlari, o‘zbek tiliga turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarning ta’siri.
- B. O‘zbeklarning turmush tarzi, o‘zbek tiliga turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarning ta’siri.
- C. O‘zbeklarning etnik xususiyatlari va o‘zbek tiliga tojik tilining ta’siri.
- D. O‘zbek tiliga turkiy tillarning ta’siri.
- E. O‘zbek tiliga turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarning ta’siri.

8. Quyidagilardan qaysi biri lahja emas?

- A. Qarluq.
- B. Qipchoq.
- C. O‘g‘uz.
- D. Qozoq-nayman.
- E. Qarluq-chigil-uyg‘ur.

9. O‘zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. O‘rtal o‘zbek.
- B. Janubiy Xorazm.
- C. Qarluq.
- D. Do‘rmon.
- E. Jaloyir.

10. O‘zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Samarqand.
- B. Qipchoq.
- C. Xorazm.
- D. Buxoro.
- E. Marg‘ilon

2-MAVZU: O‘ZBEK SHEVALARI TASNIFI

REJA:

1. O‘zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari.
2. K.K.Yudaxin tasnifi
3. E.D.Polivanov tasnifi
4. A.K.Borovkov tasnifi
5. V.V.Reshetov tasnifli.
6. O‘zbek: dialektologlari

O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari

O'zbek shevalari, asosan, 1920-1930-yillardan boshlab ilmiy assosda o'rganila boshlandi va shu asnoda uning dastlabki tasniflari paydo bo'la bo'ldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida V. Nalivkin, M. Nalivkina, A. Starchevskiy, A. Vishnegorskiy, Z. Alekseev, N. Ostromov, T. Qiyosbekovlar jonli til faktlari asosida o'zbek tili lug'ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. Ularni sof dialektologik ishlar deb ham, adabiy til faktlari deb ham bo'lmaydi.

XX asrning bosqlarida o'zbek adabiy tiliga asos bo'ladigan sheva va dialektlarni aniqlash, milliy tilning imkoniyatlarini belgilash shiori bilan o'zbek shevalari keng miqyosda o'rganila boshlandi. Shu jarayonda o'zbek shevalari tasnif qilindi.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir necha tamoyillardan foydalilanadi. Ular quyidagilar:

- o'zbek (turkiy) tiliga xos bo'lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo'lishi;
- ma'lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi, jumladan singarmonizm va umlautning mavjudligi;
- tarixiy qatlamga oid leksik birliklarning miqdori, o'zlashgan qatlam so'zlarining ishtiroki;
- o'zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo'limgan til va shevalarning ta'siri;
- shevaning asosiy xususiyatini belgilovchi xarakterga ega bo'lgan tovush yoki fonemaning tarqalish darajasi;
- so'zning fonetik strukturasi va boshqalar.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan. O'zbek shevalarini professor I. I. Zarubin tasnif qilishga harakat qilgan va uning Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarcand-Buxoro kabi to'rt guruhga bo'linishini ko'rsatadi, lekin ularga xos bo'lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto qipchoq va shimoliy o'zbek shevalari uning e'tiboridan chetda qolgan.

2. O'zbek shevalari tasnifi. O'zbek shevalarini dastlab professor K. K. Yudaxin tasnif qilishga musharraf bo'ldi. U o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga ko'ra tasnif qilib, 4ta guruhnini belgilaydi:

- asl turkiy tovush tizimi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari;
- o'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar;
- eron tili unlilar tizimini saqlagan o'zbek shevalari;
- o'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik K. K. Yudaxin o'zbek shevalari bilan mukammalroq tanishib, uni 5 guruhga – Toshkent, Farg'ona, qipchoq, Xeva va shimoliy o'zbek shevalariga ajratadi.

O'zbek shevalarini o'rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda E. D. Polivanovning ulug' xizmatlari bor. U o'zbek tili va shevalari bo'yicha 250dan ortiq nomda katta va kichik hajmda asarlar va ilmiy ishlarni yaratgan. Hozirgi kunda uning 150dan oshiq ishlari e'lon qilingan. E. D. Polivanov o'zbek shevalari bo'yicha "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" (1933), "Toshkent shevasining tovush tizimi" (1922), "O'zbek tilining singarmonizmni yo'qotgan shevalari namunalari" (1928) kabi ishlari mavjud.

E. D. Polivanov o'zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan. Keyingi davr dialektologlari E. D. Polivanov o'zbek shevalarini tasnif qilishda 2 tamoyil: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiya (qardosh bo'lмаган tillarning aralashuvi)ni hisobga olgan holda tasnif qilgan degan fikrni ilgari suradilar. Bu e'tibordan chetda qoladigan fikr emas, lekin E. D. Polivanov tasnifini metisatsiya va gibridizatsiya bilan bog'lab qo'yish mumkin emas, balki E. D. Polivanov turkiy tillar, o'zbek tili va uning eroniy tillar bilan munosabati kabi holatlarni hisobga olgan. Aslida, u deyarli barcha o'zbek shevalarini shaxsan o'rganib chiqib, uning taraqqiyot tarixi, urug', qabila davri xususiyatlarining saqlanib qolishi nuqtai nazaridan shevalarni tasnif qiladi hamda o'zbek tili tarkibida uch yirik lahja mavjudligini belgilab beradi:

1. Chig'atoy lahjasি. Bu lahjani 7 tipga ajratadi: 1. Samarqand-Buxoro. 2. Toshkent. 3. Marg'ilon-Qo'qon. 4. Andijon-Shahrixon. 4-A: Chortoq yoki umlautli shevalar. 5.Qo'qon, Andijon, Norin qishloq singarmonizmli shevalari. 6. Shimoliy o'zbek shahar (Chimkent, Turkiston)shevalari. 7. Shimoliy o'zbek qishloq (Mankent) shevalari.

2. O'g'uz lahjasি. U 2 tipdagi shevalarni o'z ichiga oladi: 1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G'azavot, Xazorasp, Yangiariq) shevalari.

2. Shimoliy o'g'uz guruh (Iqon, Qorabuloq) shevalari.

3. Qipchoq lahjasি. Uni bir necha tipga ajratadi: 1. Xorazm qipchoq shevalari: a) Shimoliy Xorazm ("дж"lovchi); b) O'rta Xorazm ("й"lovchi) shevalari. 2. Qurama shevalari. 3. Qozoq-nayman, Farg'ona-Qoraqalpoq shevalari. 4. Shimoliy o'zbek qipchoq dialekti (So'zoq, Cho'laqo'rg'on).

Chig'atoy lahjasiga qarashli, ayniqsa, Samarqand-Buxoro shevalarini kuchli eronlashgan shevalar deb hisoblaydi (11-rasm).

O‘zbek tili

I. Chig‘atoy lahjası

II. O‘g‘uz lahjası

III. Qipchoq lahjası

1. Samarqand – Buxoro.
2. Toshkent.
3. Marg‘ilon – Qo‘qon.
4. Andijon – Shahixon:
 - a) Chortoq yoki umlouqli shevalar.
 5. Shimoliy o‘zbek shahar (Chimkent-Turkiston) shevalari.
 6. Shimoliy o‘zbek qishloq (Mankent) shevalari.

1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G‘azavot, Xozarasp, Yangiariq) shevalari.
2. Shimoliy o‘g‘uz guruhi (Iqon, Qorabuloq) shevalari.

1. Xorazm qipchoq shevalari:
 - a) Shimoliy Xorazm (дж) “дж” lovchi
 - b) O‘rta Xorazm (й) “й” lovchi shevalari.
2. Qurama shevalari.
3. Qozoq-nayman, Farg‘ona-Qoraqalpoq shevalari.
4. Shimoliy o‘zbek qipchoq dialekti (So‘zoq, Cho‘laqo‘rg‘on).

G‘ozzi Olim tasnifi. U shevalarni leksik, morfologik va fonetik xususiyatlariiga ko‘ra tasnif qilish lozimligini uqtirgan holda shevalarni 1) o‘zbek-qipchoq, 2) turk-barlos, 3) Xiva-Urganch lahjalariga ajratadi.

O‘zbek-qipchoq lahjasini qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, Gurlan; turk-barlos lahjasini Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan; Xiva-Urganch lahjasini Xiva, Qarluq guruuhlariga ajratadi.

A. K. Borovkov tasnifi. A. K. Borovkov shevalarning fonetik xususiyatlarini hisobga olib, dastlab “а/а”lovchi va /а/lovchi shevalarni farqlaydi. аlovchi shevalarga Toshkent, Xonobod, Xos, Taqachi, Yangiyo‘l, shevalarini; “а/а”lovchi shevalarni esa, о‘з navbatida, “й/ј”lovchi va “дж/ڇ”lovchi shevalarga ajratadi. “й/ј”lovchilarga Chimkent, Mankent, Turkiston; “дж/ڇ”lovchilarga Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand viloyati qishloq shevalari kiritiladi.

A. K. Borovkov o‘zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib, uni yana 4 dialektga ajratadi:

1. **O‘rta o‘zbek dialekti.** Uni ikki guruuhga ajratadi: 1) O‘rta O‘zbekiston shevalari: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va boshqalar; 2) shimoliy o‘zbek shevalari: Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va boshqalar.

2. **Shayboniy o‘zbek yoki “дж(dj)”lovchi dialekti.** Bunga Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Shimoliy Xorazm va Farg‘ona vodiysidagi “дж(dj)”lovchi shevalarni kiritadi.

3. **Janubiy Xorazm dialekti.** Bunga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G‘azavot, Sho‘raxon kabi shevalarni kiritadi.

4. Alohida guruh shevalariga 1) Qorabuloq, Iqon, Mankent; 2) umlautli shevalarga (Namangan)ni kiritadi.

V. V. Reshetov tasnifi (tasnif to‘liq keltirilmoqda)⁵.

Hozirgi O‘zbekiston territoriyasida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos etnogenetik jarayon hamda qardosh va qardosh bo‘lman xalqlar tilining bir-biriga ta’siri o‘zbek tilining juda murakkab dialektal kompleksini vujudga keltirdi. Tarixiy-lingvistik jihatdan bu kompleks uchta komponentdan iborat:

1) **shimoli-garbiy guruh** – o‘zbek tilining qipchoq lahjasi. Bu guruhga o‘zbek tilining qipchoq shevalari; territorial yondosh qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

2) **janubi-g‘arbiy guruh** – o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. Bu guruhga territorial yondosh turkman tili taalluqlidir.

3) **janubi-sharqiy guruh** - bu guruhga qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasini tashkil qiluvchi ko‘pchilik o‘zbek shahar shevalari, hozirgi o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg‘ur tili kiradi. Mazkur lahjaga kiruvchi shevalarning ko‘pchiligi uchun shu narsa xarakterlik, ular tojik tili bilan juda qadimdan aloqador bo‘lgan.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilining dialektal kompleksi haqiqatan ham murakkab bo‘lib, u O‘rta Osiyo va Qozog‘iston territoriyasidagi xalqlar tilining kichik lingvistik xaritasini eslatadi.

Tarixiy-lingvistik faktlar ko‘rsatganidek, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston territoriyasida mavjud bo‘lgan uchta (qipchoq, o‘g‘uz, qarluq-chigil-uyg‘ur) til birligi o‘zbek tili tarkibida ham xuddi shunga mos uch lahjaning (qipchoq, o‘g‘uz va qarluq-chigil-uyg‘ur lahjalarining) mavjud bo‘lishiga olib kelgan.

I. Qipchoq lahjasi. O‘zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘-qabila guruh vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qangli, mitan, laqay, uyshun, qoraqalpoq, tama, qishliq, ongut, qiyot, do‘rmon, arg‘in, uyg‘ur* kabi ko‘pgina urug‘lar mavjud.

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta territoriyaga tarqalgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga dalildir. Haqiqatan ham, qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysi, Fargona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko‘pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir. Bugina emas, o‘zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston respublikalari territoriyasida ham bor.

⁵Qarang: Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. – Б. 3-14.

O'zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folklorshunoslar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Avloddan-avlodga o'tib kelgan juda boy xalq og'zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi o'zbek xalqining milliy g'ururi hisoblanadi. Shu sababli aksariyat qismi qipchoqlardan bo'lgan o'zbek xalq baxshilarining hayoti va ijodini o'rganish, o'z navbatida, qipchoq shevalarining xarakterli til xususiyatlarini har taraflama tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasi o'z fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra o'zbek adabiy tili normalaridan ham ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

II. O'g'uz lahjasi. Xorazmnning janubiy qismidagi bir qancha shevalar o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmdagi Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, G'azavot, Yangiariq, Sho'raxon, Urganch singari aholi yashaydigan punktlarda, shuningdek, Toshhovuz viloyati va Qoraqalpog'istonning bir qator tumanlarida o'g'uz lahjasining vakillari juda ko'p.

Shimoliy o'zbek (Turkiston-Chimkent) guruh shevalari (Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Iqon) ham, shubhasiz, o'g'uz elementlarining ishtirokida shakllangan. Mazkur lahja vakillari respublikaning boshqa tumanlarida (masalan, Jizzax yaqinidagi Bog'don qishlog'ida) ham uchraydi.

III. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi. O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi shahar shevalarini va ularga yondosh bo'lgan shahar tipidagi qishloq shevalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur dialekt birligining shakllanishi XI asrdagi Qoraxoniylar harakati bilan bog'langan.

Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg'ur til birligiga Namangan, Toshkent, Andijon va O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi yirik punktlar aholisining shevalari taalluqlidir.

Bu lahjaning shevalari O'zbekistan territoriyasidan tashqarida ham ko'p tarqalgan. Masalan, Qozog'iston territoriyasidagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent; Qиргизистон territoriyasidagi O'sh, Jalolobod, O'zgan va boshqalar shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg'onistonda ham uchratamiz. Ma'lumki, 1630-yillarda o'zbek urug'laridan qatag'onlarning bir qismi Shoshdan (Toshkent vohasidan) Afg'onistonga ko'chib ketganlar. O'zbek shevalarini klassifikatsiya qilgan tadqiqotchilar bu lahja shevalarini turli guruhlarga kiritganlar, holbuki, mazkur shevalar o'rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy jihatdangina emas, balki hozirgi paytdagi holatida fonetikada ham, leksikada ham, ba'zi grammatik formalarda ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

Uyg'ur tiliga xos bir qator tipik xususiyatlarning, qisman "umlaut"ning mavjudligiga qarab Namangan shevasi, xususan, Namangan atrofidagi ba'zi qishloq shevalari, masalan, Uychi shevasi alohida o'rin tutadi.

Namangan shevalariga asos bo‘lgan turkiy til birligini e’tiborga olmasdan turib, Andijon, O’sh kabi shevalar genezisini aniqlash mumkin emas. Shuningdek, Toshkent shevasining yuqorida ko‘rsatilgan shevalarga genetik jihatdan aloqadorligini hisobga olmasdan turib, Toshkent shevasidagi ba’zi fonetik xususiyatlarning va morfologik formalarning kelib chiqishini tushuntirish mumkin emas, Modomiki, shunday ekan, yagona territoriyada va yagona bir til jamoa tarkibida bir-biriga bog‘lanmagan holda vujudga kelgan til hodisalari yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Toshkent va Jizzax shevalarining yaqinligini tasodifiy bir hol deb bo‘lmaydi, shuningdek, Qarshi, Toshkent va Namangan shevalari o‘rtasidagi o‘xhash fonetik hodisalarning mavjudligini faqat til taraqqiyotining umumiyligi bilangina izohlash mumkin. Iqon-Qorabuloq, ayniqsa, Chimkent-Sayram tipidagi shevalar ham shu umumiy taraqqiyot yo‘lidan chetda qolgan emas. Chunki bu shevalar eski o‘zbek yozuv tili bilan, shuningdek Toshkent va Namangan tipidagi shevalar bilan mustahkam aloqadordir. Faqat mazkur shevalarning ayrimlarigina o‘g‘uz tili elementlarini ma’lum darajada saqlaganligi bilan Toshkent, Namangan tipidagi shevalardan farqlanadi, xolos. Samarqand-Buxoro-Xo‘jand guruh shevalarining turkiy zaminini ham qarluq-chigil-uyg‘ur til birligi tashkil etadi, lekin bu shevalarning tarkibiy qismida tojik tili qatlaming minimal ustunligi va ikki tillilik saqlangan. Shu sababli mazkur shevalar bilingvism jarayonini, har jihatdan o‘zaro farqlanadigan til sistemalarining o‘zaro ta’sir jarayonini o‘rganish nuqtai nazaridan juda qiziqarlidir. Mazkur lahjaga oid shevalar (Toshkent, Jizzax, Qarshi, Andijon, Namangan, O’sh, Qorabuloq, Chimkent va boshqalar) tarixiy jihatdan bitta dialekt kompleksini tashkil etadi. Bu lahjani tubandagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

I. Farg‘ona guruhi. U bir necha dialektlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Namangan dialekti.* Bu dialektga Namangan shahar shevasi va shahar tipidagi Namangan atrofidagi shevalar (masalan, Uychi va boshqalar) taalluqlidir (Namangan atrofidagi qipchoq shevalari, tabiiyki, bu dialektga kirmaydi.).

Mazkur dialektga oid shevalar uyg‘ur tiliga maksimal darajada yaqinligi bilan xarakterlanadi.

2. *Andijon-Shahrixon dialekti.* Bu dialektga Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi va Andijon viloyatidagi boshqa bir qator shevalar kiradi.

3. *O’sh-O‘zgan dialekti.* Bunga O’sh, O‘zgan, Jalolobod va shu tipdagи boshqa shevalar taalluqli bo‘lib, ular uchun janubiy qirg‘iz shevalari bilan bo‘lgan metisatsiya xarakterlidir.

4. *Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti.* Bu dialektga Marg‘ilon, Farg‘ona, Vodil, Qo‘qon va boshqa shu tipdagи shevalar kiradi.

II. Toshkent guruhi.

1. Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Piskent, Parkent, Qoraxitoy va boshqalar taalluqlidir.

2. Jizzax dialekti.

III. Qarshi guruhi.

1. Qarshi dialekti. Bu dialektga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ va (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi.

2. Samarqand-Buxoro dialekti. Bunga Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryodagi Koson va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi (o‘g‘uz va qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar bu dialektga kirmaydi).


IV. Shimoliy o‘zbek guruhi.

1. Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt va boshqa ba’zi shevalar taalluqli bo‘lib, ular o‘zining tarkib topish jarayonida avvalo o‘g‘uz, keyinchalik esa qipchoq tili elementlari bilan aralashgan.

2. Turkiston-Chimkent dialekti. Bu dialektga Turkiston Chimkent, Sayram va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi. Mazkur dialekt o‘g‘uz tili elementlarining kam bo‘lishi, biroq Janubiy Qozog‘iston shevalari bilan metisatsiyaga kirganligi sababli qipchoq tili elementlarining ko‘proq bo‘lishiga qarab Iqon-Qorabuloq dialektidan farq qiladi (12-rasm).

12-rasm

O'zbek shevalarining prof. V. V. Reshetov tomonidan qilingan klassifikatsiyasi



3. O'zbek dialektologlari. O'zbek shevalarining o'rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo'lган professor E. D. Polivanov, mashhur professorlar K. K. Yudaxin, G'ozi Olim, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o'zbek olimlari yetishib chiqdi. O'zbek shevalari akademik Sh. Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M. Mirzaev, F. Abdullaev, S. Ibrohimov, H. G'ulomov, Y. G'ulomov, A. Aliev, A. Shermatov, A. Jo'raev, O. Madrahimov, T. Yo'ldoshev, N. Rajabov, X. Doniyorov, T. Nafasov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov, H. Myrodova va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Bu professor va fan doktorlari bilan birga 50ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar. Bu olimlar ishlari tufayli o'zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandı va deyarli barcha lahja va shevalar sinxronik tarzda o'rganib chiqildi, lug'atlari tuzildi.

O'zbek dialektlari hamon tadqiqot ob'yekti bo'lishi mumkin, ya'ni endilikda o'zbek shevalarining barcha masalalari bo'yicha nazariy muammolar: o'zbek shevalari fonologiyasi, turkiy dialektologiya, etimologiya, turkiy tillar bilan qiyosiy jihatlardan o'rganilishi kerak. Bu kabi masalalarning o'rganilishi o'zbek tilshunosligini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Shevalar qanday tamoyillar asosida tasnif qilinadi?
- 2.O‘zbek shevalari kimlar tamonidan tasnif qilingan va ulardagi farqlar nimalardan iborat?
- 3.Qaysi o‘zbek dialektologlarini bilasiz va ular qanday tadqiqot ishi olib borishgan?
- 4.Professor Zarubin tasnifi haqida nimalarni bilasiz ?
- 5.K. K. Yudaxin o‘zbek shevalarini qay tarzda tasnif qilgan ?
6. Y. D. Polivanov o‘zbek shevalarini nimaga asoslanib tasnif qilgan ?
- 7.G‘ozi Olim tasnifida asosan tilning qaysi tamonlariga e’tibor berishga harakat qilgan ?
8. V V Reshetov tasnifining mukammallik tomonlari haqida fikrlang.
- 9.Hozirgi kunda shevaning eng dolzarb o‘rganilmagan tomonlari haqida to‘xtaling.
- 10.Shevashunoslikka oid qanday yangi ko‘rinishlar yuzaga kelmoqda?

Glossariylar:

Shevalarni tasnif qilish [classification of dialect] – shevalardagi o‘xshash va noo‘xshash xususiyatlarni hisobga olib, ularning guruhlarini belgilash.

Metisatsiya [metisation] – qardosh tillar va shevalar chatishuvi.

Gibrnidizatsiya [hubridization] – qardosh bo‘lmagan til va shevalarning aralashib ketishi.

TEST SAVOLLARI

1.Prof. I. I.Zarubinning shevalar klassifikatsiyasi qaysi javobda to’g’ri berilgan?

- a) Toshkent, Farg’ona, Qipchoq, Xiva, O’g’uz va shimoliy o‘zbek shevalari.
- b) Xiva, Farg’ona, Toshkent, Samarqand-Buxora.
- d) eronlashgan va eronlashmagan shevalar.
- s) qipchoq, o’g’uz, qarluq-chigil-uyg’ur dialekti
- e) o’zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjasi.

2. Prof. K. K. Yudaxinning shevalar klassifikatsiyasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Toshkent, Farg'ona, Qipchoq, Xiva, O'g'uz va shimoliy o'zbek shevalari.
- b) Xiva, Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxora.
- d) eronlashgan va eronlashmagan shevalar.
- s) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- e) o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjasi.

3. Prof. Ye. D. Polivanovning shevalar klassifikatsiyasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Toshkent, Farg'ona, Qipchoq, Xiva, O'g'uz va shimoliy o'zbek shevalari.
- b) Xiva, Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxora.
- d) eronlashgan va eronlashmagan shevalar.
- s) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- e) o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjasi.

4. Prof. G'ozi Olimning shevalar klassifikatsiyasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Toshkent, Farg'ona, Qipchoq, Xiva, O'g'uz va shimoliy o'zbek shevalari.
- b) Xiva, Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxora.
- d) eronlashgan va eronlashmagan shevalar.
- s) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- e) o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjasi.

5. Prof. G'ozi Olimning klassifikatsiyasiga ko'ra o'zbek-qipchoq lahjasi qanday shevalarga ajratiladi?

- a) Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan.
- b) qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, gurlan.
- d) Xiva, Qorluq
- s) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- e) Andijon, Namangan, Xiva

6. Prof. G'ozi Olimning klassifikatsiyasiga ko'ra turk-barlos lahjasi qanday shevalarga ajratiladi?

- a) Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan.
- b) qirq jaloyir-laqay, qipchoq, gurlan.
- d) Xiva, Qorluq
- s) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti

e) Andijon, Namangan,Xiva

7. Prof. G'ozi Olimning klassifikatsiyasi ko'ra Xiva-Urganch lahjasi qanday shevalarga ajratiladi?

- a) Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan.
- b) qirq jaloyir-laqay, qipchoq, gurlan.
- c) Xiva, Qorluq
- d) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- e) Andijon, Namangan,Xiva

8. Prof. A. K. Borokovning shevalar klassifikatsiyasiga qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) o'rta o'zbek, shayboniy-o'zbek, janubiy-Xorazm va alohida guruh shevalari.
- b) Xiva, Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxora.
- c) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- d) Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan
- e) o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjasi.

9. Prof. V. V. Reshetovning shevalar klassifikatsiyasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) o'rta o'zbek, shayboniy-o'zbek, janubiy-Xorazm va alohida guruh shevalari.
- b) Xiva, Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxora.
- c) qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur dialekti
- d) Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan
- e) o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjasi.

10. Qipchoq lahjasiga xos fonetik xususiyatlardan noto'g'risini aniqlang.

- a) singormanizmning saqlanishi
- b) unlilarning diftonglashishi
- c) kontras juft unlilarning mavjudligi.
- d) so'z oxirida k,q ning tushib qolishi.
- e) l//n undoshlarining almashinishi.

3-Mavzu: : Transkripsiya.

Reja:

1. Transkripsiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Unli tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.
3. Undosh tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.
4. Yangi o'zbek transkripsyasi.
5. Diakritik belgilar

1. *Transkripsiya haqida umumiy ma'lumot.*

Transkripsiya lotincha *qayta yozish* degan ma'noni bildiradi. Transkripsiyaniga ta'rif: Shevalardagi konkret nutq tovushlarini, ya'ni fonemaning variatsiyalari, variantlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llaniladigan harflar, ishoralar sistemasiga transkripsiya deyiladi» Bu ta'rif ayni o'rinda fonetik transkripsyani anglatadi, chunki konkret nutq tovushini yozib olishda fonetik transkripsyadan foydalaniladi.

Transkripsiya qo'llanish doirasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Xalqaro transkripsiya. Bu transkripsiya lotin alifbosiga asoslanadi.
2. Milliy transkripsiya. Bu har bir milliy tilning amalda bo'lgan yozuvitizimiga asoslanadi. O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llaniladigan transkripsion tizim professor V.V.Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan va u rus alifbosi asosidagi o'zbek grafikasiga asoslanadi, lekin o'zbek dialektologlari garchand V.V.Reshetov transkripsyasiga asoslansalar-da, shevalarni yozib olishda har doim ham unga to'la riosa qilmaydilar, chunki shevalardagi tovushlarni belgilashda har bir tadqiqotchi ma'lum darajada erishishlariga ruxsat etiladi.

Transkripsiya xorijiy tillarni organishda va til tarixini o'rganishda ham qo'llaniladi. Bunda yodgorliklarda u yoki bu tovushning (fonemaning) talaffuz (artikulyatsion-akustik) me'yorini belgilash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Transkripsiya tamoyillari bilan orfografiya tamoyillari o'rtasidagi asosiy farq. Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko'rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan ma'lum belgilar sistemasidir. Til tovushlarini aniq ifodaash uchun xizmat qiladigan yozuv transkripsiya (lotincha transcriptio—qayta yozish) deb ataladi.

Transkripsiya uchun u yoki bu xalq isteomolidagi (lotin, rus, o'zbek, alfavit kabi) an'anaviy alfavitdan o'rni bilan ma'lum bir o'zgarishlar kiritish orqali foydalaniladi. Shuning uchun ham transkripsyada belgilar soni o'ziga asos bo'lgan alfavitdagi harflar sonidan ko'p bo'ladi.

Transkripsiya tamoyillari o'ziga xos xususiyatlari bilan orfografiya va uning tamoyillaridan (fonetik, morfologik, tarixiy-ananaviy kabi) farq qiladi. Transkripsyaning asosiy tamoyiliga ko'ra so'zlar qanday eshitilsa, shunday yozib

olinadi. Orfografiyada, odatda, bir tovush bir harf bilan ifodalansa ham, lekin ba'zan bir tovush ikki harf (belgi) bilan yoki, aksincha, ikki tovush bir harf bilan berilishi mumkin. Transkripsyada esa, hamma vaqt bir tovush bir harf (belgi) bilan beriladi.

Transkripsyani transliteratsiyadan farqlash zarur.

Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma'lum bir matnni nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv sistemasini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv sistemasi orqali ifodalash transliteratsiya deb ataladi. Demak, transliteratsiya –biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usulidir. Transliteratsiya bir tildagi bir yozuv tizimida yozilgan matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga ag'darishni bildiradi. Masalan, arab yozuvidagi matnlarni kirilga, kirildan lotin yozuvi asosidagi yangi yozuvga ko'chirish transliteratsiyadir.

Transkripsyaning fonetik va fonematik turlari ham bor. Fonematik transkripsiya tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi hamda yuqorida ta'kidlanganidek, bunday transkripsiya xorijiy tillarni va til tarixini o'rganishda qo'llaniladi. Fonetik transkripsiya esa nutqdagi fonemaning variatsiyasi bo'lgan konkret nutq tovushlarini va ba'zi ishoralarni belgilashda qo'llanadi. Bu transkripsyadan shevalarni o'rganishda foydalilanadi.

Mohiyat jihatidan eng aniq transkripsiya fonetik transkripsyadir. Bu transkripsiya umumiy va xususiy fonetika, shu qatori eksperimental fonetika yutuqlariga asoslanadi. Tillardagi nutq tovushlarini fonetik transkripsiya uchun tanlangan alfavit orqali ifoda qilib bo'lmasa, boshqa tillar alfavitidan harflar olinadi yoki harflar yoniga, ustiga, ostiga, ichiga diakritik belgilar orttiriladi. Fonetik transkripsyaning vazifasi tilda mavjud bo'lgan hamma tovushlarni yozuvda aks ettirishdir.

Translyatsiya tushunchasi ham bor. U bir yozuvidagi matnni ikkinchi yozuvga kompyuter dasturi vositasida o'tkazilishini bildiradi.

Albatta, har bir tilda joriy yozuvda bo'lgan harflar transkripsiya tizimini amalga oshirish uchun yetarli bo'lmaydi. Shu jumladan, joriy o'zbek alifbosidagi harflar ham o'zbek shevalarini yozib olishda uning turli fonetik jarayonlarini ko'rsatish uchun kifoya bo'lmaydi. Shu tufayli ham mavjud harflarga qo'shimcha belgilar qo'yiladi, ba'zan esa boshqa yozuv tizimidan harf qabul qilinadi va h. Demak, sheva materiallarini yozib olish chog'ida har bir dialektolog ijodiy yondoshish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Hozigacha olib borilgan dialektologik tadqiqotlarda shevalar quyidagi, ya'ni rus grafikasi asosidagi transkripsiya amalga oshirilgan.

2.Unli tovushlarni ifodalashda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.

Unli tovushlar barcha tillarda ham ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘zbek shevalarida ayniqsa fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifodalashda o‘zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalilanildi:

a(a) - umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida qo’llanadi. “dj” lovchi shevalarda: *ana, ata, bala*.

ə(ə) - aksariyat turkiy tillarda qo’llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: *əkə, ənə, üəshə*. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida qo’llanadi.

ɔ(ɔ) - orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo’llanadi: *ɔl, ɔsh, bɔl*.

e(e) - old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalarida qo’llanadi: *el, bel, üel, kel..*

ɪ(i) - old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud: *ush, tul* (Buxoro). *bul* (Farg‘ona)

ʏ(yi) - orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi: *qyz, qыйыq* Bu unli singarmonizmli o‘zbek shevalarida talaffuzda bor.

ҵ(y) - indifferent, shahar shevalarida tarixan **и** va **ы** unlilarining birlashishi (konvergensiysi) natijasida hosil bo‘lgan tovushni ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda **и** unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan tovushni bildiradi, old qator, yuqori-tor, lablanmagan. Shahar shevalarida: *bɔrdə, kъrgъn*; singarmonizmli shevalarda: *keldə, üettə bər*.

ь(b) - **ы** unlisining qisqa talaffuz qilinadigan varianti, orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, faqat singarmonizmli shevalarda qo’llanadi: *bardə, tъg‘bn, bъqъn*.

y(y) - orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalarida qo’llanadi: *by, yl, yn*.

ყ(y) - old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda va singarmonizmni yo‘qotgan Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo’llanadi: *kyl, bygyn, tyn*.

օ(o) – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha o‘zbek shevalarida talaffuzda bor: *ot* (adabiy orf. *o‘t*), *qol* (adabiy orf. *qo‘l*). *oq* (adabiy orf. *o‘q*), *toq* (adabiy orf. *to‘q*).

ə(ə) - old qator, o'rtalik, lablangan unlini ifoda qiladi: **bəl** (moq), **kəl**, **hənər** (hunar), **bəldə** (adabiy orf. bo'ldi). Singarmonizmli o'zbek shevalarida va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo'llanadi.

ɛ(ɛ) - tadqiqotchilarining ko'rsatishicha, Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi. U **ə** va **ɛ** unlilariga ancha yaqin turadigan unlini ifoda qiladi, old qator, o'rtalik, lablanmagan: **kə(l)** - Iqon. **gel-** Xorazm. Bu ma'lumot ko'rsatilgan shevalarda o'z kuchini yo'qotmoqda, faqat Namangan shevalarida saqlanib qolmoqda: **neme**(nima), **qeneqe**(qanaqa), **Halimaxon ettəmən kemədə**(Halimaxon erta bilan kelmadı).

3. Undosh tovushlarda qo'llaniladigan; transkripsion belgilar.

Undosh tovushlarni ifodalashda fanda rus grafikasi asosidagi undoshlarni ifodalovchi harflardan foydalanilgan. Ular, deyarli, o'zgarishsiz transkripsiya uchun qabul qilingan. Shunga qaramasdan, ayrim undoshlarni farqlash va o'ziga xosligini belgilashda transkripsion belgilar qo'llaniladi. Ular quyidagilarda ko'rindi:

й – lotin alifbosidagi y undoshi o'rnida qo'llanadi: **syūynch, kyūynchək**

дж (dj) – qorishiq portlovchi tovushni ifodalaydi.

ң - sonor, burun tovushini bildiradi, adabiy orfografiyası - **ng**.

в - lab-tish tovushini ifoda qiladi.

w - lab-lab tovushini ifodalaydi **cyw, qywmaq** kabi so'zlarda qo'llanadi.

ф - lab-tish tovushi uchun qo'llanadi va asosan o'zlashgan so'zlarda uchraydi.

f - lab-lab tovushini ifoda qiladi, aksariyat o'rinlarda turkiy taqlidiy so'zlarda qo'llanadi.

Undoshlar transkripsiyasidagi bu belgilar juda ham qat'iy emas⁶.

4. Yangi o'zbek transkripsiysi.

Bunda ko'p yillardan beri turkologiyada qo'llanib kelinayotgan transkripsiya tizimiga asoslaniladi. Bundan buyon dialektologik tadqiqot bilan shug'ullanuvchilar lotin alifbosi asosidagi quyidagi transkripsiya tizimidani foydalanishi mumkin:

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan. .

ɔ – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan.

⁶ Ushbu darslikda ta'lmlishini osonlashtirish maqsadida undoshlar transkripsiyasida joriy (lotin) alifbodagi harflardan foydalanildi.

e – old qator, o‘rta-keng, lablangan.

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan.

ü – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan.

i vaï unlilari o‘zbek shevalarida qisqa tovushni ifodalash uchun (*til*, *qil*), shahar shevalarida indifferent tovush uchun qo‘llanadi.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan.

o – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan.

ö – old qator, o‘rta-keng, lablangan.

ε – old qator, o‘rta-keng, lablanmagan.

Cho‘ziq unlilar uchun ikki nuqtani qo‘llash mumkin.

Undoshlarni transkripsiya qilishda quyidagi harflardan foydalanish maqsadga muvofiq: *b*, *d*, *č* (amaldagi *ch* o‘rnida), *g*, *γ* (amaldagi *g’o*rnida), *h*, *j* (amaldagi *y* o‘rnida), *k*, *l*, *m*, *n*, *η* (amaldagi *ng* o‘rnida), *p*, *q*, *r*, *s*, *š* (amaldagi *sh* o‘rnida), *t*, *v*, *x*, *ž* (amaldagi *j* o‘rnida).

5. Diakritik belgilar.

: (ikki nuqta) - tovushning cho‘ziqligini bildiradi.

(akut) - belgining o‘ng tomoniga qo‘yilsa, palatalizatsiyani, chap tomoniga qo‘yilsa velyarizatsiyani bildiradi.

> va < - bir tovushning ikkinchisiga o‘tishini ko‘rsatadi.

II - ikki tovush yoki so‘zning parallel qo‘llanishiga ishora qiladi.

() - qavs ichidagi harf ba’zan nutqda talaffuz qilinmasligini bildiradi.

[] - katta qavs matndagi bo‘g‘in, so‘z, transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi, masalan: [Тұлқы] “*пътәгә ромәнің әлдәңүз*”...

Matn transkriptiyasidan namunalar

1.Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi shevalaridan namuna.

An'anadagi transkriptiyada:...Пәншәнъ бу гәпъ ел-йурттъ джә қыйнәп қойыптъ. Пәншәдән безэр болтъ хәлжайък. Бър кәммәғәл шайър бәрәкән. У пәншәнъ әлдәңүз бәрәптъ. Пәншә ундән, хъ гәдәй, нәгә келдъң, дъп сорәптъ. Кәммәғәл шайър әдәмлә тәртвәткән қыйынчълъйлә:нъ, тәммә-тәм олу:(в)нъ

котеръп мәзәргә әбрүш әзәбләрънъ шығыр қып пәшишәгә оқъверъпть-де, сәнгә мунъ нъме пәйдәсъ вә, дыпты.

Yangi o'zbek transkrigsiyasida:...Рәшәни бу гапи el-jurtti жә qijnäp qojsipti. Рәшәдән bezar bopti xäljiq. Bir kämmäyäl šejir bärakän. U рәшәни әldigä бәcripti. Рәшә undän, hi gädj, nägä keldiң, dip coräpti. Kämmäyäl šejir әdämlä тәrtvәtkän qjinçilijlä:ni тәmmä-tәm olu(v)ni kotärip мәzәrgä әbәriš äzәblärini шиyr qip рәшәгä oqiveripti-de, sängä muni nime рәjdäsi вә, dipti.

2. Qipchoqlahjası shevalaridan namuna.

An'anadagi transkripsiyada: ...Къз улғайып ^вон алты джашқа джетъпты. Джыгът ^ворман ъчъдән кәттәкән қорған қурып қызды нъкәләп апты. Къз шундайам чырәйль бопты-ку, ^воньң чачь зәрдән пайда боғандай. Быр кунъ қыз анхарға башынъ джувыпты. ^вОнъң быр дана чачь ^вузүлъп ағып кетъпты...

Yangi o'zbek transkrigsiyasida:...Qız ulyajıp ^вon žaşya žetipti. Żigit ^вorman içidәn kättäkän qoryan qurüp qızdı nikäläp apti. Qız şundajam čiräjli bopti-qu, ^вonii čači zärdän pajda boyandaj. Bir kün qız anharya başını žu(v)ipti. ^вOnii быр дана чачи ^вüzülip ağıp ketipti...

3. O'g'uz lahjası shevalaridan namuna.

An'anadagi transkripsiyada:...Быр варәкән, быр йоқәкән, қади:m заманда быр па:шша боған әкән. Шу па:шшань ә:шъкънъ ә:лдъндә быр да:рах ва: әкән. Бу да:рахны быр йа:rpaф a:лтъннан, быр йа:rpaф кү:mүштән әкән. Гү:лләдә быр гү:n ҳәр гү:nъ быр йа:rpaq йоқ ^воладь әмъш. Соң па:шша са:рай a:дамнарънъ са:қчыльқ ә:тмәкә қойыпты.

Yangi o'zbek transkrigsiyasida: ...Bir varäkän, bir joqäkän, qadi:m zamanda bir pa:ssa boyan äkän. Šu pa:ssanii ä:šíkini ä:ldindä bir da:rax va: äkän. Bu da:raxnii bir ja:rpayi a:ltinnan, bir ja:rpayi kü:müštän äkän. Gü:llädä bir gü:n är gü:ni bir ja:rpaq йоқ ^вoladï ämiš. Soñ pa:ssa sa:raj a:damnarinii sa:qčiliq ä:tmäkä qojipti.

Talabalarni faollashtirish uchun savollar:

1. Transkripsiya deb nimagaataladi?
2. Transliteratsiya deb nimagaataladi?
3. Old qator unlilarni ifodalashda qaysi belgilar qo'llanadi?
4. Orqa qator unlilarni ifodalashda qaysi belgilardan foydalaniladi?
5. Undoshlarni farqlashda qaysi harflar olinadi?
6. Diakritik belgilar deb nimagaaytiladi?

GLOSSARIY.

Velarizatsiya [velarization] – undoshlarning qattiqlashishi.

Diakritik belgi [diacritic mark] – harflarga qo'shimcha ravishda qo'yiladigan belgilar, ishoralar.

Dialektolog [dialectologist] – shevashunos, shevani o'rganuvchi olim.

Indifferent [indifferent] – oraliq tovush.

Palatalizatsiya [palatalization] – undoshlarning yumshoqlashishi.

Transkripsiya [transcription] – yozuvning maxsus turi

Transliteratsiya [transliteration] – matnni bir yozuv tizimidan ikkinchisiga ko'chirish, masalan, kirildan lotinga.

Transkripsion belgi [transcriptional mark] – har bir nutq tovushi uchun qo'llaniladigan harf.

Fonetik transkripsiya [Phonetic transcription] – konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan ishoralar tizimi.

Fonematik transkripsiya [Phonemic transcription] – tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996 .
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
4. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.1.
5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'.O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
6. J.K.Chamers, Piter Trudgill. Dialectology.Cambridge. 2004.

TEST

1.Trankripsiyaaga berilgan to'g'ri ta'rifni aniqlang.

- A) bir tildagi bir yozuv tizimida yozilgan matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga ag'darish
- B) tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi
- C) jonli so'zlashuv tilidagi konkret nutq tovushlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan harflar, belgilar sistemasi
- D) bir yozuvdagi matnni ikkinchi yozuvga kompyuter vositasida o'kazilishi

2. Transkripsiya qo'llanilish doirasiga ko'ra...

- A) ikki xil bo'ladi:xalqaro, milliy
- B) ikki xil bo'ladi:fonetik va fonematik
- C) uch xil bo'ladi:transkripiya,translitiratsiya,translyatsiya
- D) ikki xil:rus alifbosi asosida, lotin alifbosi asosida

3. O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llanadigan transkripsion tizim kim tomonidan ishlab chiqilgan?

- A) Prof.Polivanov.
- B) Prof.Reshetov
- C) Shoabdurahmonov
- D) K.Yudaxin

4. Θ(θ) transkripsion belgini to'g'ri tasniflang.

- A) old qator, o'rta keng,lablanmagan
- B) orqa qator,o'rta keng,lablangan
- C) old qator,yuqori tor, lablangan
- D) old qator,o'rta keng,lablangan

5. Matndagi bo'g'in,so'z,transkripsiya qilingan so'zlarni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan diakretik belgi qaysi?

- A) '(akut) belgisi
- B) () - kichik qavs
- C) [] - katta qavs
- D) > va< diakretik belgisi

6. Velyarizatsiya nima?

- A) oraliq tovush
- B) ndoshlarning qattiqlashishi
- C) unlilarning qattiqlashishi
- D) undoshlar uyg'unligi

7. Θ(θ) qaysi shevalarda uchraydi?

- A) Shahar shevalarida
- B) Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi
- C) barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi
- D) singarmonizmli shevalarda

8. Indifferent tovushni ko'rsating.

- A) о
- B) и
- C) ъ
- D) ъ

9. Hundoshini tasniflang.

- A) sonor, burun tovushini bildiradi, adabiy orfografiyasi -ng.
- B) til orqa, jarangli, portlychi
- C) faqat qipchoq shevalarida uchraydi.
- D) nazal tovushi

10. Tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi nima deyiladi?

- A) fonematik transkripsiya
- B) fonetik transkripsiya
- C) transkripsiya
- D) orfoepik transkripsiya

11. ...- lab-lab tovushini ifodalaydi aksariyat o'rirlarda turkiy taqlidiy so'zlarda qo'llanadi.

- A) w
- B) ф
- C) f
- D) в

12. ө(ө) - old qator, o'rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: bol (moq), kel, henar (hunar), boldb qaysi shevalarda qo'llanadi?

- A) singarmonizmni yo'qotgan shevalarda

B) singarmonizmli o‘zbek shevalarida va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida

C) barcha o‘zbek shevalarida mavjud

D) shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram)

13. Singarmonizmli shevalarda nechta unli mavjud?

A) 12tagacha

B) 6 ta

C) 9-11ta

D) 18 tagacha

14. Ъ, е, ə, Ҷ, о, у ushbu unlilar qaysi shevada mavjud.?

A) Toshkent shevalarida

B) Samarqand shevasida

C) Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram)

D) Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda

15. Bir kуни qız anharya başınıň žu(v)ipti. 'Onïň бър dana čači 'üzülip aýip ketipti... ushbu matn qanday transkripsyada yozilgan.

A) yangi o‘zbek transkrigsiyasida

B) an'anadagi transkripsyada

C) xalqaro transkripsiya

D) milliy transkripsiya

16. Соң па:шша са:рай а:дамнаръынъ са:кчъльқ ә:тмәкә қойыпты. Ushbu matnda qanday diakretik belgi qo'llangan?

A) tovushning cho'ziqligini bildiradi

B) matndagi bo‘g‘in, so‘z, transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi

C) ikki tovush yoki so‘zning parallel qo‘llanishiga ishora qiladi

D) bir tovushning ikkinchisiga o‘tishini ko‘rsatadi.

17.-Худайи молъиъз гўмуши восун, йолъимъ йәқъи || йеқъи қълдъз. Вўй қоинъ шашългэнъмнән ҳўл сорәшәм есъмнән чъп кўни711ъ, ендъ

сөрәишәйлүк: тұзумъсъз. Тұнукұн тәвъңъз йоғ деп ъильтып хыла йърәгъм әчъимәсә. Ushbu matnda nechta diakritik belgi qo'llangan?

- A) 5 ta
- B) 8 ta
- C) 3ta
- D) 2ta

18. An'anadagi transkripsiyada yozilgan matnni aniqlang.

- A) Соң па:шша са:рай а:дамнарынъ са:қчыльқ ә:тмәкә қойыпты.
- B) Bu da:raxnï bir ja:rpayï a:ltïnnan, bir ja:rpayï kü:müštän äkän.
- C) Qïz ulýajip ^on žašya žetipti.
- D) Kämmäyäl šejir däamlä tɔrtvɔtkän qijinčilijlä:ni tɔmmä-tɔm

19. Æushbu transkripsion harfni tasniflang.

- A) old qator, o'rt-a-keng, lablanmagan.
- B) old qator, o'rt-a-keng, lablangan.
- C) old qator, quyi-keng, lablanmagan
- D) orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli

20. e(ε) ushbu transkripsion harf qaysi shevalarida uchraydi?

- A) Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo'llanadi.
- B) Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi
- C) Barcha o'zbek shevalarida mavjud
- D) Shahar shevalarida

Uyga vazifa:

1. Mavzuga oid materiallarni qo'shimcha adabiyotlardan konspekt qilish va mavzuni o'zlashtirish.
2. Berilgan matnni transkripsiyadan foydalangan holda o'qish va yozish.

Toshkent shevasi

Мән озъм ескъ бɔ:wɔmmәn. Ҳозър онуч сотых йеръм бɔ:. Йәрмъ тәк, йәрмъгә мевәлъй дәрәхлә еккәммән. Әлмә-пәлмә, нәк-пәк дъгәндәй – хәммәс бɔ:. Әзгънә сөвзъ-пъйәз, кәртъшкәйәм еккәммән, йегулувгә йәрәшә. Бәллә дәләдә ъшләшәдъ. Қәръп қәлдым, қәдым мәнәм дәләдә ъшләр-ъдым. Ҳозър

тўмэрқәгә еккән нәрсәлә:гә, тўккә қәрәп турәмән. Джъм туръболәдъ дъйъсмъ, ъшләп оргәнгән әдәмгә. Йэздә дәлә бәғъдә қәрәвулчъльйәм қъләмән, бәлләгә йэрдәм босын дъп. Ъшкъп, қъмълләп тургәнгә нъмә йессъи. Қъмъләсән қър әшәсән дъйъшкән. Кельң, съзгә бә:дәрчъльйдән гәпъръ-берәқәлъ. Бә:нъйәм джә ъшъ коп боләдъ. Ертә кохләм тәк әчъләдъ, шорәсъ осып кетмәстән. Пәйәлә съңгән, бәғәзлә чушьп кеткәм босә, ъшкәм, бәшкәттән ъшләнәдъ. Бу шундә: боләдъ: съңгән пәйәнъ эп тәшәп, оннъгә йеңгъ пәйә қойъләдъ, кегън пәйәлә егъп ъшкәм қълънәдъ. Пәйәгә йомбәшләтъп бәғәз бәйләнәдъ. Бәғәззъ ъстәй мънәм бәйлъивуз. Тәллъ ъңгъчкә нәвдәсънъ ъстәй дъйвуз. Кегън тәккъ ъшкәмгә котәрәвуз. Нәвдәләрънъ тәрәп, чыптәмънәм бәғәзгә бәйләп қойевуз. Йэздә тәк осып, ъшкәммъ орәп кеткәндә хәмтәв (< хәмтәк) қъләвуз. Бомәсә, нәвдә пъшмъй қәләдъ, узъмәм бемәзә боләдъ. Хәмтәв къгәндә, кун йәхшъ чушәдъ. Нәвдәйәм пъшәдъ, узъмәм шърәлъ боләдъ. Кун йәхшъ чушьшайчун бә:йләнъ йулъп тәшләшшъ хәмтәв дъйвуз. Узъм пъшкәндә, ъшкәммъ устъгә бәғъп оттәсъгә хәвәзә қъләвуз. Хәвәзәдә отъръп қушшъ қоръивуз. Йэздә тут пъшъғъдәм бәшләп қәрәйәлә:, чуғурчу: келәдъ. Қоръп турмәсән, узъммъ шълъп кетәдъ. Тәртәрәй чәлсән қәчәдъ. Әнув кәттә йәңдә:гәйәм қонцъро: қып қойәмән, қуш қоръшкә. Қонцъро:нъ пәкърдән қъләмән. Пәкърръ ъчъгә бүттә темърръ эсълтъръп бәйләп, пәкърръ йәңдә:нъ уччъгә эсъп қойәмән. ъчъдәгъ темъргә кәнсип бәйләп хәвәзәгә тәртъп келәмән. Хәвәзәдән туръп кәнсиппъ тәртъп қәсәм, дәрәнн-дурунн қып кетәдъ, қуш бәләсъ йоләп корсъинчъ. Хәвәзәдә йәтәмән, қушшъ эвәзъ кесә, йәткән джайымдә кәнсиппъ тәртъп қойәмән, қонцъро: джәрәнләп кетәдъ, қуш бәққә йоләмъидъ. Кечәсъйәм хәвәзәдә йәтәмән.

3-MA'RUZA

Mavzu: O'ZBEK SHEVALARI FONETIKASI R E J A:

- 1. O'zbek shevalarining unlilar tizimi.**
- 2. Unlilar tasnifi.**
- 3. Undoshlar tizimi**

Tayanch tushunchalar :

Vokalizm -unlilar tizimi.

Konsonantizm - undoshlar.

Kontrast unli - old qator va orqa qator xususiyatlariga ko'ra zidlangan unlilar.

Unlilar tasnifi – og’iz bo’shlig’ida tilning harati hamda og’izning ochilish darajasi lablarning ishtirokiga ko’ra unlilarni guruhlarga ajratish.

Inglizcha-o’zbekcha- ruschalug’at:

Фонетик ўзгаришлар - Phonetic change — Фонетические изменения

Фонетик меъёр - Fonetik rate — Фонетическая норма

Унли - Vowels - Гласные

Ундош - Consonant - Согласные

Ундош - consonant - согласный звук

Консонантизм - consonantism - консонантизм

Артикуляция усули - Way to articulate — Способ артикуляции

Артикуляция ўрни - Place of articulation — Место артикуляции

Жарангли ундошлар - Voiced consonants — звонкие согласные

жаранглилик - Voicing — звонкость

Жарангиз ундошлар - Voiceless consonants — глухие согласные

Жарангизлик - Deafness — Глухость

Бурун ундошлари - Nasal consonants — Носовые согласные

Бўғиз ундоши - Guttural consonant — Гортанный согласный

Бўғиз товуши - Guttural — Гортанный звук

Лабланган унлилар - Labialized vowels — Лабиализованные гласные

Лабланиш - Labial, labialization — Огубление, лабиализация

Лаблашган - labial - лабиальный

Лаблашиш - labialization - лабиализация

Үйғунлик - harmony - гармония

O’zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi avvalo ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O’zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o’ziga xosligi jihatidan o’zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o’xshashliklarga ham ega bo’ladi.


1.Unlilar tizimi.

O’zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologik ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning soni 18 tagacha etadi, degan ma’lumotlar beriladi. Aslida shevalar fonetikasi o’rganilar ekan, ulardagi fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari e’tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o’rinli bo’ladi.

Unlilar tizimi(vokalizm). Qarluq-chigil-uygur lahjasiga kirgan dialekt va shevalarda 6tadan 10tagacha unli tovush bor. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda 6ta, singarmonizmli shevalarda esa 9-11ta unli qo‘llanadi. Toshkent shevalarida **ъ**, **е**, **ə**, **ɔ**, **y**, Samarqand shevasida **ъ**, **е**, **ə**, **a**, **o**, yunlilari qo‘llangan bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda **ɔ**unlisi bilan birgalikda **a** unlisi ham uchraydi. Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) 11 ta (**a**, **e**, **ə**, **i**, **ъ**, **ы**, **ь**, **o**, **ə**, **y**, **ү**) unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham 11ta unli tovush qayd qilinadi.

2. Unli tovushlar tasnifi.

Unlilarning joylashish tartibi:



Unli tovushlar barcha tillarda ham ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘zbek shevalarida ayniqsa fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifodalashda o‘zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalaniladi:

a(a) - umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida qo‘llanadi: *ana, ata, bala*.

ə(ə) - aksariyat turkiy tillarda qo‘llanadi va old qator, qo‘yi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: *əkə, ənə, ńəshə*. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida qo‘lanadi.

ɔ(ɔ) - orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo‘llanadi: *ɔl, ɔsh, bɔl*.

e(e) - old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi: *el, bel, üel, kel*.

и(u) - old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud: *ush, tul* (Buxoro). *bul* (Farg‘ona)

ы(ы) - orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi: **qыз, қыйық** Bu unli syngarmonizmli o‘zbek shevalalarida talaffuzda bor.

- hozirgi zamon davom fe‘li Toshkentda -вт ~ vāt(**кевттъ** ~ kevātti), Parkentda -м ~ āt(**бпмттъ**~bārātti)variantlarida qo‘llanadi.

-ишиши ~ š/iš/uš affiksi harakat nomining asosiy affiksi hisoblanadi: yetishdi ~ иетъшиштъ ~ jetišti, qurishdi ~ курушиштъ ~ qurušti.

-лэр ~ lär affiksi va uning variantlari hurmat va ulug‘lash ma’nosini ifodalaydi.

-лъг/луг ~ lig/lugaffiksi ko‘plik ma’nosini ham anglatadi: ularning uylari ~ улә:ни ойлуғъ ~ ulä:ni oylugi, dadamlarning ishlari ~ әдәмгълә:ни ъиљъ ~ ädämgilä:ni išligi.

-ги ~ gi affiksi Toshkent shevasida jamlik ma’nosini ifoda qiladi:**әдәмгъла** ~ ädämgilä(adam + boshqalar).**ойынгъла** ~ ājimgilä (oyim + boshqalar);

- fe‘l tuslanushining I shaxs ko‘pligida -вуз / вузә ~ vuz / vuzä, -в / ве ~ v / uv affikslari qatnashadi: бпвуз / бпвузә / бпрдув ~ bārāvuz / bārāvuzä / bārduv;

Farg‘ona guruhi shevalari.

Fonetik xususiyatlari:

- so‘z boshida т/ч ~т/ч, с/ч ~с/ч undoshlari almashadi: tush ~ чуши ~ чиš, tish ~ чиши ~ чиš, soch ~ чу ч ~ чиš;

- so‘z oxirida к/г ~ к-g, к/ғ ~ ғ/γ almashuvi sodir bo‘ladi. Masalan, yo‘q ~ йоғ ~ joy, bo‘lak (boshqa) ~ бөләг ~ böläg, bir kunlik ~ бир куллуг ~ bir kullug, baliq ~ белиз ~ beliy. Olmoshlarda: qandoq ~ қандоз ~ qandāy, andaq ~ андоғ ~ andāy, shundoq ~ шундоз ~ šundāy, bundoq ~ бундоз ~ bundāy (Namangan).

- turli holatlarda x/к ~ x/q undoshlari almashadi: (Namangan) toxta ~ тоқтә ~ toqtä, to‘qson ~ moxсиң ~ toxsān, boqdik (qaradik) ~ биҳутук ~ bāxtuq.

- progressiv assimilatsiya qayd qilinadi: qushni ~ қушиштъ ~ quşşı, gapнъ ~ гапнъ ~ гәппи, toshnъ ~ ташнъ ~ tāssı;

- umlaut hodisasi qayd qilinadi: bosh+ъ ~ бәшиш ~ bāši(O‘sh), ot атъ / ётъ ~ äti / eti(Namangan).

Morfologik xususiyatlari:

-bu shevalar 5 kelishiklidir;

- bu shevalarda ham -**нъ** ~ **ni** affaksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: akasining ishi ~ **әкәсънъ ъиң** ~äkäsini iši, oshning tuzi ~ **аштъ тузъ** ~äšti.tuzi;

- tushum kelishigi affiksidiagi **n** undoshi **d**, **t** undoshi bilan almashadi. Bu Andijon, Marg'ilon, Qo'qon guruh shevalarida qayd qilinadi. Bunda jarangsiz undoshdan so'ng -**тъ** ~ **ti**, jarangli undoshdan so'ng esa -**дъ~di** variantlari qo'shiladi: oshning mazasi ~**аштъ мәзәсъ** ~äšti mäzäsi, **млодъ кестъ** ~ **tälđi kesti**;

- bu shevalarda hozirgi zamon davom fe'li -**ym** ~ **ut**, -**йәn** ~ **jäp** variantlarida qo'llanadi: ketyapti ~ **кетумтъ** ~ **ketutti**(Namangan), **ойнәйәптъ** ~ **ojnäüäpti**(Marg'ulon);

- **и/ъи/үи** ~**s/iš/uš** affaksi harakat nomining asosiy affaksi hisoblanadi: kelishdi ~ **кељиштъ** ~ **kelišti**, qurishdi ~ **куруштъ** ~ **qurušti**.

- **ләр** ~ **lär** affksi ba'zan -**нә** ~ **nä** variantida ham qo'llanadi: ishinglar ~ **ъиңнә** isijnä, бәрғыйнä ~ **bāyijnä** (Namangan);

- fe'l tuslanushining I shaxs ko'pligida adabiy tilga xos shakl qo'llanadi: boramiz ~ **bārämiz**, keldik ~ **келдък** ~ **keldik**, bordék ~ **бәрдък** ~ **bārdik**;

- harakat va paytning chegarasunu ifodalashda -**ч****вур** ~ **čāvyr**(-**гäчä** ~ **gäčä**affksi o'rnila) qo'llanadi: bahorgacha ~ **бәхрәгәч****вур** ~ **bähärgäčāvur**, shahargacha ~ **шәхәргәч****вур** ~ **şähärgäčāvur**;

- tartib son -**нәжъ** ~ **nži** affksi bilan shakllanadi: birinchi ~ **бърънәжъ** ~ **birinži**, beshinchi ~ **бешънәжъ** ~ **bešinži**;

Samarqand-Buxoro guruh shevalari. Bu guruhga Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo'jand kabi shevalar kiradi.

Fonetik xususiyatlari:

- **о/а** unlisi boshqa shahar shevalaridan farqli ravishda **o/o** unlisiga yaqin, ya'ni qisman lablangan: oldim ~**(o)лъм** ~ **ā(o)llim**, bozor ~ **бә(o)зә(o)p** ~ **bā(o)zā(o)r**;

- so'zning ikkinchi bo'g'inida adabiy tildagi **i** unlisi "u" ga o'tadi: xotin ~ **xатун** ~ **xātun**, dori ~ **ðору** ~ **doru**;

- **й/j**, **х/h** undoshlaridan oldin adabiy tildagi **u** unlisi **o/o** ga o'tadi: uyqu ~ **ойқу** ~ **ojqu**, suhbat ~ **соҳбәт** ~ **sohbät**, guruh ~ **гуроҳ** ~ **guroh**;

- c/s, г/g, f/y undoshlaridan oldin o/o unlisi “y/u”ga o’tadi: o’gay ~ *ygaй* ~ *ugäj*, o’sma ~ *усма* ~ *usmä*, bog‘ma ~ *бугмә* ~ *buymä*;
- ba’zi so‘zlarda i unlisi “e”ga o’tadi: mix ~ *mex* ~ *mex*, tig‘ ~ *tef* ~ ~*tey*, umid ~ *умед* ~ *umed*;
- x, h undoshlari farqlanadi: xon ~ *xон* ~ *xān*, hol ~ *xол* ~ *häl*;
- я/l undoshi bilan tugagan so‘zlarga д/d undoshli affiks qo‘shilganda, progressiv assimilatsiya yuz beradi: oldim ~ *оллъм* ~ *ällim*, keldim ~ *келлъм* ~ *kellim*, aldar ~ *алләп* ~ *älläp*;

Morfologik xususiyatlari:

- jo‘nalish kelishigi affiksi o‘rin-payt kelishigi ma’nosini ham ifodalaydi: *якеттә әкәссыйә, хурмәйә қәтъх әб бәргән чәхә* (chog‘da) *йолғә* (yolda) *йәемур үлкән ~ U* kättä äkäsijä xurmäjä qätix ab bärğän čäxgä (chog‘da) *jolgä* (yolda) *jäymur jaqqän* (Qarshi);
- hozirgi zamon davom fe’li -*пп* ~ *äp* affiksi bilan ifoda qilinadi: kelyapman ~ *келләппән* ~ *keläppən*, sorayapsan ~ *сөрпңесән* ~ *söräpsän*, koryapti ~ *көрпәнту* ~ *köräptu*;
- uzoq o‘tgan zamon fe’lida tuslovchi affikslar qatnashmasligi mumkin: *мән келгән / сән келгән / у келгән // бүз келгән / сыз келгән / уләр келгән ~ main kelgän / sän kelgän / u kelgän // biz kelgän / siz kelgän / ulär kelgän*;
- o‘tgan zamon hikoya fe’lida - *əp/är*(bolishsigi *-mäc/mäś*)sifatdosh affiksi tarkibidagi p/r, bo‘lishsizidagi c/s undoshlari ў/j undoshiga o‘zgaradi: kelar edim ~ *келәйдым* ~ *keläjidim*, kelmas edim ~ *келмәйдым* ~ *kelmäjidim*, kelar ekan ~ *келәйкән* ~ *keläjikän*, kelmas ekan ~ *келмәйкән* ~ *kelmäjikän*, kelmas emish ~ *келмәймәши* ~ *kelmäjimiš*.

Lahja leksikasidan namunalar. Bu lahjaning leksikasi butun lahja uchun umumiyl bo‘la olmaydi, balki Toshkent, Farg‘ona vohasi, Buxoro guruh shevalari va shimoliy o‘zbek shevalari leksikasida muayyan farqlar mavjud.

Toshkent, Farg‘ona shevalarida quyidagi kabi so‘zlar qo‘llanadi: arg‘amchi ~ *әргәмчъ* ~ *äryämči*, agat ~ *агат* ~ *ägät*, masxara ~ *әджува* ~ *äžuvä*, oynak ~ *әйнәк* ~ *äjnäk*, yaroqsiz ~ *әкчә* ~ *äkčä* (Toshkent), shakarob ~ *әччу:-чуччу* ~ *äčči:-čicči:*, sirg‘a ~ *зърәй* ~ *ziräj*, ammo ~ *ъ:лл* ~ *illä:*, goh-gohda ~ *йәг:да* ~ *jägädä* (Andijon), uchrashish ~ *кезъкъиши* ~ *kezikiš* (O‘sh), darg‘azablik ~ *купър* ~ *kupir* (Toshkent), o‘jar ~ *къийқ* ~ *qijiq* (Andijon), sopol idish ~ *қокәчә* ~ *qoqäčä* (Andijon), janjalkash ~ *лолъ* ~ *loli* (Farg‘ona), so‘ta ~ *мәрдәк* ~ *märdük* (Farg‘ona), qo‘lqop ~ *мъйәләк* ~ *mijäläk* (O‘sh), holat ~ *әлпаз* ~ *älpaz* (Toshkent) va boşkalap.

Buxoro guruh shevalarida quyidagi kabi so‘zlar qo‘llanadi: belanchak ~ *әлвандж* ~ *älvänž*, kekirdak ~ *рук* ~ *ärük*, bexostan ~ *бәнәх* ~ *bänäxäs*, agar ~

бәлле ~ *bälle*, salomlashmoq ~ *өлхордъ* ~ *växordi*, beshik ~ *гәвәрд* ~ *gävärd*, sovg‘a ~ *зәллә* ~ *zällä*, nimcha ~ *ъчък* ~ *ičik*, ko‘rpa ~ *кәмпәл* ~ *kämpäl*, yenglik ~ *стънчә* ~ *ästincä* va boshqalar.

Shimoliy o‘zbek shevalarida quyidagi kabi so‘zlar qo‘llanadi: katta ~ *ծәв* ~ *däv*, ko‘rsatkich barmoq ~ *барамалтақ* ~ *baramaltaq*, opa ~ *айтомъ* ~ *ajtoti*, og‘ir xarakterli ~ *арқальқ* ~ *arqalıq*, namroq ~ *ъгал* ~ *iyal*, boyagi ~ *йаңағы* ~ *jañayı*, ho‘l ~ *йаш* ~ *jaš*, ochko‘z ~ *йерък* ~ *jerik*, nuqul ~ *өңкәй* ~ *öñkäj*, vazmin ~ *салақа* ~ *salaqa*, barmoq ~ *шавшақ* ~ *šavšaq* va boshqalar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjaga xos yana qanday so‘zlarni bilasiz?

TEST SAVOLLARI

1. Qarluq –chigil- uyg`ur dialektining shakllanishi kimlar bilan bog`liq?
A) Mahmud Qoshg`ariy, As-saolibiy;
B) Qoraxoniylar bilan;
S) Muhammad Solih, Mahmud Qoshg`ariy ;
D)Qoraxitoylar bilan.
2. Quidagi hududlardan qaysilari qarluq lahjasiga kirmaydi?
A) Jalolobod , O`zgan ;
B) Turkiston , Sayram ;
S) Qorabuloq, Qoramurt ;
D) Janubiy Xorazm , Gurlan.
3. Vodil shavesi qaysi gruppa va qaysi dialect tarkibiga kiradi?
A|) Farg`ona gruppasi ; Andijon- SHahrixon ;
B) Farg`ona guruppasi ; O`sh – O`zgan ;
S) Farg`ona viloyati ; Marg`ilon-Qo`qon ;
D) Qarshi gruppasi ; Samarcand- Buxoro.
- 4.Qaysi dialect tojik tili bilan gibridizatsiyaga hamda har xil formalarda bilingvismni saqlashiga ko`ra farqlanadi ?
A) Qarshi dialecti ;
B) Toshkent dialecti;
S) Iqon –Qorabuloq dialecti ;
D) Samarqand –Buxoro.
5. Andijon –shahrixon dialectiga kirmaydigan shevalar qaysilar?
A) O`sh-o`zgan ;
B) Marg`ilon-Qo`qon ;
S) Andijon- Shahrixon ;
D) A va B javoblar.

6. Turkiston-Chimkent dialekti Ikon – Qorabuloq dialektidan qanday farq qiladi?

- A) O`guz tili elementlarining kamligi ;
- B) Janubiy Qozog`iston shevalari bilan metitatsiyaga kirganligi sababli ;
- S) *Qipchoq tili elementlarining ko`p bo`lishi* ;
- D) Barcha javoblar to`g`ri.

7. O`zak affikslarda q-k , g`-g undoshlarining saqlanishi qaysi shevalarda uchraydi?

- A) Farg`ona, Toshkent ;
- B) *Namangan, Marg`ilon* ;
- S) Toshkent, Farg`ona;
- D) Uychi, *Qo`qon*

8. So`z oxirida g` undoshining saqlanishini kimlarning yozma yodgarliklarida uchratamiz?

- A) Muhammad Solih “ SHayboniynoma” ;
- B) Qoraxoniylar davrida yozilgan asarlarda ;
- S) “Qutadg`u bilig” da , Mahmud Qoshg`ariy “Devon” ida ;
- D) O`rxun -enasoy yozuvlarida.

9. койнәк , койнәй so`zlari qaysi shevaga xos?

- A) Namangan ;
- B) Farg`ona ;
- S) Uyg`ur ;
- D) *Toshkent*.

10. Fonetik xususiyatlariga ko`ra qarluq –chigil- uyg`ur lahjasi qanday shevalar hisoblanadi?

- A) ü-lashgan;
- B) дж-lashgan ;
- S) o-lashgan ;
- D) qisman a-lashgan.

11.Qыlvаттъм va qыlvаттъмәn so`zlari qayerda ishlatiladi ?

- A) Toshkent viloyati, Ohangaron tumani ;
- B) Namangan qishloq shevalari ;
- S) Andijon shahar shevalari ;
- D) *Toshkent viloyati Parkent tumani*.

12.-рп affiksi qaysi shevaga xos?

- A) Farg`ona shahri;
- B) *Samarqand shahri* ;
- S) Toshkent viloyati ;
- D) Shimoliy o`zbek shevalari.

13.Toshkent shevasida qo`llangan 1-shaxs o`tgan zamon shaklidagi so`zni toping.

- A) yўzyəpmən , bўrvətmən ;
- B) yўzdъk , bўrdъk ;
- C) yzədъmъz , brədъmъz ;
- D) yzədyq, brədyq.

14. To`liq progressiv assimilyatsiyaga uchragan so`zlarni toping.

- A) Baqtuq-baxtuq, tanbur- tambur;
- B) Nonvoy-novvoy, terakka- terakka ;
- S) **Tuzni-tuzzi , oshni-oshshi;**
- D) Bunday so`z berilmagan.

15. Tushum- qaratqich affiksidiagi -n, -d, -t tovushlarining almashinishi A xarakterlanadigan shevalar ?

- A) Namangan, Farg`ona, Toshkent ;
- B) **Andijon, Marg`ilon, Qo`qon ;**
- S) Andijon, Namangan , Qo`qon;
- D) Farg`ona , Qo`qon, O`sh.

16. “Havozada : so`zi tarkibida qanday unlilar ishok etgan?

- A) orqa qator lablanmagan o ; old qator lablangan a ;
- B) old qator lablangan o , orqa qator lablangan a ;
- S) ikkalasiyam old qator , lablangan ;
- D)old qator , lablanmagan e : old qator lablangan ?.**

17. Velyarizatsiya nima ?

- A)Undoshlarning yumshoqlashuvi ;
- B)Undoshlarning qattiqlashuvi ;**
- S)Oraliq tovush ;
- D)Yozuvning maxsus turi.

18. O`zbek shevalari kimlar tomonidan tasnif qilingan?

- A) Shoabdurahmonov , Nurmonov ;
- B) Ibrohimov, Nurmonov , Palivanov ;
- C) N. Rajabov , Nurmonov , Palivanov ;
- D) Rashetov , Borovkov, Aliyev.**

19.Chigil qabilasi qaysi hududlarda yashagan?

- A) Oltoy o`lkasida ;
- B) Sirdaryoning o`rta va quyi oqimida ;
- S) Ili daryosining janubida , Issiqko1 atroflarida ;**
- D) Forish , Oltoy , Qorako`l tumanlarida.

20. серба:p qaysi shevaga xos dialectal so`z ?

- A) Labixovuz – Buxoro ;**
- B) Iqon- Qorabuloq ;
- S) Xorazm -Gurlan ;
- D) Samarqand- Kitob.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR

1.Ashirboyev S. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO`Z, 2016.

2.Rajabov N. O`zbek shevashunosligi. – Toshkent: O`qituvchi, 1996 .

3.Ashirboyev S. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.

4.To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.

9-Mavzu: O‘g‘uz, qipchoq lahjalarining muhim xususiyatlari

Reja

- 1.Lahjalarning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjalarning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjalarning morfologik xususiyatlari.
4. Lahjalarning leksik xususiyatlari

Tayanch tushunchalar:

O‘g‘uzlar [oguz]- qadimgi turkiy qabilalar.

Qipchoq, kimak / imak (yimak) [Kipchak, kimak] – qadimgi turkiy qabilalar.

Qipchoq lahjasining qisqacha tarixi va tarqalishi. Qipchoq qabilalari hamuzoq o‘tmishda Oltoy o‘lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. XIII asr o‘rtalarida ular **kimak/imak** (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrlarda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar.

VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo‘yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo‘ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O‘rta Osiyo, Volga bo‘yi territoriyalarida istiqomat qiladilar.

Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida yashaydilar.

Fonetik xususiyatlari. Qipchoq lahjasini shevalarida singarmonizm qonuni to‘liq amal qiladi. Hatto fe’llardagi yetakchi va to‘liqsiz fe’ldan iborat fe’l shakli ham singarmonizmga bo‘ysinadi: bor ekan~ **барақан**~ *baraqan*, boribmi ekan ~**баръппақан** ~ *barippaqañ*, ko‘p ekan ~ **қүвәқән**~ *küväkäñ* boshqalar. Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar qayd qilinadi:

- kontrast juft unililar: *y/y* ~*ü/u*, *ø/o*~*ö/o*, *u/uı* ~ *i/i:*, **ب-ب**~*i/i*, **ə/a(□)**~*a/a* mavjud.

- palatal singarmonizm to‘liq, labial singarmonizm esa qisman saqlanadi;

- diftonglashish kuchli: **ء-e**, **ء-o**, **ء-θ** ~ *e*, *o*, *ö*;

- so‘z boshida й ~ ј undoshi дж ~ ѡ undoshiga o‘tadi: yo‘l ~ *дэжол* ~ *žol*, yamon – *дэжаман* ~ *žaman*;
- г/ғ ~ г/γ undoshlari й ~ јgao‘tadi: yig‘in ~ *дэжъийн* ~ *žijin*, tegdi ~ *тъйдь* ~ *tijdi*, sigir ~ *съйр* ~ *sijir*;
- unlilar o‘rtasida п ~ p, к ~ k ,қ ~ q undoshlari jaranglashadi: gəp ~ *гәбъ* ~ *gäbi*, ekin ~ *егън* ~ *egin*, chiqin – *чъгън* ~ *čigün*;
- х undoshi q undoshiga o‘tadi: xotin ~ *қатын* ~ *qatin*, tuxum ~ *тукум* ~ *tuqum*, xayol ~ *қыйал* ~ *qijal*, xat – *қат* ~ *qat*; aksincha q undoshi x undoshiga ham o‘tadi: vaqt – *вакт* ~ *vaxt*, oq ~ *ox* ~ *ox*.
- so‘z oxirida k, q undoshlari tushib qoladi: sariq ~ *саръ* ~ *sarъ*, kichik – *къчъ* ~ *kiči*;
- unli bilan boshlanadigan so‘zlar boshida h undoshi ortadi: ayvon ~ *ҳайван* ~ *hajvan*, aqlъ ~ *ҳақълъ* ~ *haqlı*;
- so‘z o‘rtasida va oxirida f ~ γ, κ ~ q, κ ~ k undoshlari vga o‘tadi: og‘iz ~ *авуз* ~ *avuz*, bog‘ ~ *бав* ~ *bav*, tog‘ ~ *тав* ~ *tav*, bo‘yoq ~ *бойав* ~ *bojav*, ellik ~ *елүв* ~ *elüv*.

Morfologik xususiyatlari:

- qaratqich va tushum kelishiklari affiksida n undoshisonor va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarda d, jarangsiz undosh bilan tugagan co‘zlarda t tovushlari bilan almashadi: uyning ~ *үйдүң* ~ *ujduñ*, otning ~ *аттың* ~ *attin*, ishni ~ *ышты* ~ *išti*, gulni ~ *гулдү* ~ *guldi*;
- jo‘nalish kelishigining belgisiz qo‘llanishi xarakterli: armiyaga ketgan ~ *әрмъйә кеткән* ~ *ärmiyä ketkän*, o‘qishga bordi ~ *оқув бордь* ~ *oquv bordi*;
- kishilik olmoshlari jo‘nalish kelishigi shakli *маган* ~ *magan*, *саган* ~ *sagan*, *үзан* ~ *uyanshaklida* qo‘llanadi;
- so‘zga ko‘plik qo‘srimchasi qo‘shilganda, regressiv assimilatsiya yuz beradi: jigitlar ~ *дэжъгъллэр* ~ *žigillär*, atlar ~ *аллар* ~ *allar*;
- harakat nomi -*ө*/у^ө/γ^ө ~ v/uv/üv affiksi bilan ifoda qilinadi: boryv ~ *баруө* ~ *baryv*, keluv ~ *келуө* ~ *kelüv*, qolyv ~ *қалуө* ~ *qalyv*;
- hozirgi zamon davom fe’li -*дэжатър* ~ *žatъr* affiksi (uning old qator varianti yo‘q) bilan hosil qilinadi: boryapti ~ *баръпдэжатър* ~ *barъpžatır*, ketyapti ~ *кетъпдэжатър* ~ *ketipžatır*;

- kelasi zamon sifatdoshi **-тъган** ~ *tïyan* affiksi (uning ham old qator varianti yoq) bilan hosil qilinadi: keladigan ~ **келәтъган** ~ *kelätiyan*, boradigan **баратъган** ~ *baratiyan*;
- hozirgi-kelasi zamon fe'lining III shaxsida **-дь** ~ *di* affiksi qatnashmaydi keladi ~ **келә** ~ *kelä*, boradi ~ **бара** ~ *bara*;
- **bilan** ko'makchisi - **мән/ман** ~ *män/man* tarzida sintetiklashadi: ishi bilan **ъиъмән** ~ *išimän*, oyog'i bilan ~ **айағыман** ~ *ajayimän*.

Lahja leksikasidan namunalar: jarchi ~ **айтымчы** ~ *ajtämči*, mayda ~ **ачарва** ~ *ačarva*, xayriyat ~ **бавджыт** ~ *bavžit*, bosh barmoq ~ **бармалтақ** ~ *barmaltaq*, titroq ~ **вараджса** ~ *varaža*, iliq ~ **джыльм** ~ *žilim*, issiqroq, sovimagan ~ **өлемьк** ~ *ilimiq*, farosat ~ **ындылм** ~ *indim*, moyillik, xohish ~ **ығдусым** ~ *iğzim*, o'pich **муччы** ~ *myčči*, cho'qqi ~ **сала** ~ *sala*, taxchil ~ **санжап** ~ *sanžap*, janjalkash **търджык** ~ *türžiqt*, yolg'on ~ **өшәк** ~ *öšäk*, so'qmoq ~ **қасага** ~ *qasaya*, epchil **задаң** ~ *gadañ*, kuy ~ **әдәвүр** ~ *ädävür*.

O'g'uz lahjası. Qadimda o'g'uzlar Ile daryosi bo'yalarida shakllanib, IX-X asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi va Orol bo'yini tumanlarida istiqomat qilganlar. Keyinchalik g'arbgaga qarab siljiganlar.

Bu lahja vakillari O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qiladilar.

O'g'uz lahjası, asosan, Xorazm viloyatida keng tarqalgan, lekin bu viloyat faqat shu lahjadan iborat degan so'z emas. Professor F.Abdullayevning ko'rsatishicha, bu viloyatda qipchoq lahjasiga oid shevalar ham bor.

Fonetik xususiyatlari:

- bu lahja shevalarida **a/a**, **y/u**, **y/ü**, **w/i:**, **ұ/i**, **ы/i:**, **ө/i**, **o/o**, **ө/ö**, **ə/ä**, **e/e** unlilari qo'llanadi;
- o'zbek tili qipchoq shevalaridagi kabi kontrast juft unlilar mavjud;
- qisqa va cho'ziq unlilar farqlanadi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho'ziq unlilar (birlamchi cho'ziq unlilar) mavjud: **am** ~ *at* (hayvon) – **a:d** ~ *a:d* (ism), **om** ~ *ot* (o'simlik) – **o:m** ~ *o:t* (olov);

- dastlabki bo‘g‘inda e unlisi ə/ä unlisiga o‘tadi: kel ~ гәл ~ gäl, dedi ~ дәдъ ~ dädi, berdi ~ бәрдъ ~ bärdi;

- дәй ~ däj qo‘sishimchasi dagi ə/ä unlisi ь/i unlisiga o‘tadi: shunday ~ шундъй ~ šundij, bunday ~ бундъй ~ bundij;

- so‘z boshida t undoshi jaranglashadi: til ~ дыл ~ dil, tun ~ дүн ~ dü:n, tep ~ дә:p ~ da:r, tush ~ дүш ~ dü:š;

- so‘z boshida k tovushi jaranglashadi: ketti ~ гъттъ ~ gytty, kel ~ гәл ~ gäl, kun ~ гүн ~ gü:n, ko‘z ~ гөз ~ gö:z;

- к/q va f/g undoshlari k/k va g/g undoshlariga moyil talaffuz etiladi: qani ~ қ(к)анъ ~ q(k)anī, qanday ~ қ(к)андай ~ q(k)andaj, G‘arib – F(г)ары:n ~ γ(g)ari:p, tog‘lar ~ да:з(з)ла: ~ da:γ(g)la:;

- “bol” fe’lining boshidagi b undoshi tushib, ol ~ ol tarzida talaffuz etiladi.

- к/k, к/q undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘sishimcha qo‘shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: tilagi ~ тъләкъ ~ tiläki, sochig‘i ~ сачақъ ~ sačaqi;

- ayrim shevalarda ko‘hna e unlisi talaffuzda bor: kel ~ гәл ~ gel, ber ~ бәр ~ bær, er ~ ε:p ~ ε:r.

Morfologik xususiyatlari:

- qaratqich kelishigi affiksining-иң ың ~ iŋ/iŋvarianti ham qo‘llanadi: otning boshi ~ атың баши ~ atiŋ başı, bizning shahrimiz ~ бъзъңқаламъс ~ biziŋ qalamüs. Urganch, Xeva shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari -нъ/нъ ~ ni/niaffiksi bilan ifoda qilinadi;

- jo‘nalish kelishigi affiksi -a/ə ~ a/ä variantida ham qo‘llanadi: otimga ~ атъма ~ a:tma, ishga ~ и:ша ~ i:ša;

- sifatning intensiv shakli дым ~ düm ravishi bilan shakllanadi: дым йахши ~ dümjaxşı, дым и:ссы ~ düm i:ssi, дым йаман ~ düm jaman;

- men, sen, u olmoshlari yolg‘iz holda мән, сән, у ~ män, săn, utarzida, jo‘nalish kelishigida маңа, саңа, уңа ~ maŋa, saŋa, uŋa variantlariga ega boladi. III shaxs kishilik olmoshi birligida ^хy/^hy ~ ^hu/^huko‘pligida ^хулар/^hular ^hular tarzida diftonglashadi;

- ko‘plik affiksi -лә/ла ~ lä/la variantida ham qo‘llanadi: gullar ~ гүллә ~ gülläolinglar ~ альңла ~ alinla;

- tartib son -**нðжсъ** ~ *nživariantida* qo‘llanadi; birinchi ~ **бърънðжсъ** ~ *birinži*, beshinchi ~ **бешиңнðжсъ** ~ *bešinži*;

- harakat nomi -**мақ/мәк** ~ *maq/mäk* affiksi bilan hosil qilinadi: ko‘rmoq ~ **гөрмәк** ~ *görmäk*, ishonmoq ~ **ы:нанмақ** ~ *i:nanmaq*;

- hozirgi zamon davom fe’li -**йатър** ~ *jatır* affiksi (u ham bir variantli) bilan shakllanadi: kelyapti ~ **гәйатър** ~ *gäjatır*, boryapti ~ **барийатър** ~ *barjatır*;

- kelasi zamon fe’lining -**ðжәк/ðжсақ** ~ *žäk/žaq* affiksli shakli qo‘llanadi: keladigan ~ **гәлðжәк** ~ *gälžäk*, boradigan ~ **барðжасақ** ~ *baržaq*;

- buyruq-istak fe’lining I shaxs shakli -**лъ/ль** ~ *li/lü* affiksi bilan shakllanadi: kelaylik ~ **гәләлъ** ~ *gäläli*, boraylik ~ **баралъ** ~ *baralü*;

- buyruq-istak fe’lining II shaxs birligida o‘g‘uz lahjasining o‘ziga xos shakli qo‘llanadi: bersangchi ~ **бәрсәңә** ~ *bärsäñä*, borsangchi ~ **барсаңа** ~ *barsaña*;

- kelasi zamon fe’lida -**а/ә** ~ *a/ä* affiksli ravishdoshi asosida -**съ/съ** ~ *si/siäffksi* bilan hosil qilingan shakli qo‘llanadi: **аласъм / аласың / аласъ** ~ *alasım/ alasıñ / alası;* **аласъмъз(c) / аласыңъз(c) / аласъ~** *alasimiz(s) / alasınız(s) / alasi;* **и:чесъм / и:чесъң / и:чессъ** ~ *ičäsim / i:čäsiñ / i:čäsi;* **и:чесъмъз(c) / и:чесъңъз(c) / и:чесъ** ~ *ičäsimiz(s) / i:čäsiñiz(s) / i:čäsi.* Bu so‘zi bilan birga qo‘llanadi.

Lahja leksikasidan namunalar: go‘zal ~ **айнара** ~ *ajpara*, ha ~ **ава / ҳавва** ~ *ava / havva*, poraxo‘r ~ **а:льмсақ** ~ *a:limsaq*, kichik sandiq ~ **а:рðжса** ~ *a:rža*, arava shotisi ~ **а:рыш** ~ *a:rış*, katak ~ **а:манақ** ~ *a:tanaq*, avarak (burunga taqiladigan bezak) ~ **ә:вәрәк** ~ *ä:väräk*, poygak ~ **ә:дән** ~ *ä:dän*, ayb, gunoh ~ **ә:ләшмә** ~ *ä:läşmä*, yirik, katta ~ **бабаң** ~ *babañ*, chorraha ~ **бәндърийә** ~ *bändirjä*, maza qilmoq ~ **хәзәттәк** ~ *häzätträk*, danak ~ **би:ðжәнә** ~ *bi:žänä*, sabzavot ~ **зълал** ~ *zilal*, chiziq, yol ~ **зы:з** ~ *zi:z*, shamol ~ **йе:лиң** ~ *je:lpis*, bedarak ~ **куйын** ~ *qujin*, qishloq ~ **о:ва** ~ *o:va*, o‘tin ~ **о:мча~** *o:mča*, tutandiriq ~ **нә:ззә** ~ *pä:zzä*, taqsi (qaddi-qomati kelishgan) ~ **тақсъ** ~ *taqsı*, serjahl ~ **тосалаң** ~ *tosalan*, boshliq ~ **ҳо:n** ~ *ho:p*, yosh yigit ~ **ðжсо:ðжсық~** *žo:žıq*.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjalarning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjalarning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjalarga xos yana qanday so‘zlarni bilasiz?

TEST.

1.Xorazm janubi qismidagi ayrim sheva vakillari qaysi lahjaga kiradi?

- A Qorluq **C O'guz**
B Qipchoq D Chigil

2.O'guz lahja vakillari respublikasining ya'na qaysi tumanlarida uchraydi?

- A Buxora Qorakul C Qashqadaryo Muborak
B Jizzax Bog'don D Surxandaryo Termiz

3.O'g'uz lahjada so'zlovchi aholi soniga qarab nechanchi o'rinda turadi.

- A Oxirigi o'rinda** C Birinchi o'rinda
B Ikkinci o'rinda D A va B

4.Shovot rayon Qiyat-Qo'ng'irot qishloq shevasini kim o'rgangan?

- A Yunusov C Abdullayev
B Borokov **D Polivonov**

5.<<O'zbek tili mang'it shevasining fonetik xususiyatlari>>ni o'rgangan?

- A Abdullayev, Polivonov C Abdullaye, Yunosov
B Borokov, Ahmad Ishayev D G'ozi Olim, Yunosov

6.<<Xozarosp shevasining morfologik xususiyatlar>> qaysi olim o'rgangan?

- A Borokov C Yunosov
B Ahmad Ishayeva **D Yusuf Jumanozorav**

7.<<Janubiy Qoraqolpogi'ston o'zbek shevalari >>ni kim o'rgangan?

- A <<O'zbek tilining o'g'uz lahjasi>> qaysi olim o'rgangan?

- A Erka O'razov C Yunosov
B Fattoh Abdullayev D Borokov

8.Urganch-Xiva guruh shevalarida unlilar soni?

- A 9ta **C 10ta**
B 11ta D 12ta

9.Urganch-Xiva guruh shevalari unlilari to'g'ri keltirgan qator?

- A и,а,е,о,у,ы,ъ** C э,у,ю,я,е,ы
Во,я,ю,у,е D ъ,ю,о,а,ъ

10.и va ы tasnifi to'g'iri berlgan qatorini toping?

A Lablangan

C Til oldi va til orqa

B O'rta keng

D To'g'iri javob yo'q

11. Shimol o'zbek o'g'uzlar shevasida qaysi fonema mavjud emas?

A ə

C a

B Θ D ڏ

12. Shimoliy o'zbek o'g'uzlarida unlilar miqdori nechta?

A 6ta

C 11 ta

B 9ta

D 10ta

13. Qaysi lajhada birlamchi cho'ziqlik unlilar mavjud?

A Qorluq

C Qipchoq

B O'g'uz

D Naymam

14. Chimkent viloyatida qisqa unlilar soni?

A 9ta

C 7ta

B 8ta

D 10ta

15. Chimkent viloyatida unli fonemalar miqdori qancha?

A 15ta

C 18ta

B 11ta

D 13ta

16. Qaysi o'gu'z shevalarida qisqa va cho'ziq unlilar miqdori 17ta?

A Xiva

C To'tko'l

B Xorazm

D Shovot

17. Xorazm o'guz shevalarida cho'ziqlik asosan qaysi so'z turkumlarida uchraydi?

A Fe'l

C Sifat

B Ravish

D Ot

18. Xorazm o'g'uz shevalarida cho'ziqlik asosan qaysi so'z turkumlarida uchramaydi?

A Fe'l

C Ot

B Son

D Ravish

19. So'z boshida kelgan jarangsiz T undoshini jarangli D ga qaysi lajhada uchraydi?

A Qipchoq

C O'g'uz

B Qarluq

DAvaBjavob to'g'ri

20.Xorazm o'g'uz shevalarida qisqa va cho'ziq unlilar soni qancha?

A 12ta

C 15ta

B 17ta

D 9ta

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR

1.Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.

2.Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996 .

3.Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.

4.To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.

5.Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'.O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

10-Maʼzuy: Areal lingvistika (lingvistik geografiya)

Reja:

1. Areal lingvistika to‘g‘risida umumiy ma’lumot.

2. Areal lingvistika metodlari.

3. Areal lingvistika manbalari.

Tayanch tushunchalar:

Areal lingvistika (lingvistik geografiya).

Atlas [Atlas] – sheva, dialekt, lahjalarni turli ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan o‘quv quroli.

Izoglossa[izogloss]– til, sheva faktlarining teng kelish holatlari.

Lingvistik geografiya [linguistic geography, dialect geography]– o‘zbek shevalarini o‘rganishning bir metodi, shevalardagi til faktlarini maxsus o‘rganadigan soha.

Lingvistik karta [linguistic map]–izoglossalar joylashtirilgan karta.

Til landshafti [linguistic landscape]–izoglossalarning joylashish xususiyatlari.

Innovatsiya [innovation]–izoglossalarning tarqalish markazi.

1. Areal lingvistika (lingvistik geografiya) tushunchasi va uning mohiyati.
Bu terminlarning birinchisi lotincha *area* – maydon, kenglik, hudud hamda *lingvistika* – tilshunoslik, ikkinchisi esa *lingvistika* va *geografiya* tarkibiy qismlaridan iborat.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) sheva xususiyatlarinining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va raqamlar vositasida karta(xarita)da aks ettirish bilan shug‘ullanadigan dialektologiyaning bir bo‘limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosg tillarga xos bo‘lgan xususiyatlarning tarqalishi chegaralarini xaritada ifodalashdir.

Lingvistik geografiya shevalarni o‘rganishning bir metodi hamdir. Fanda lingvistik geografiya va dialektologiya munosabatlariga ham e’tibor qaratiladi. Bu ikki hodisaning obekti bir bo’lsa-da, ularning farqlari ham bor. Dialektologiya shevalarni monografiya, maqola va lug‘atlar yaratish orqali o‘rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya ularni tizimga tushirib, kartalashtirish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ham lingvistik geografiyani dialektologiyaning tadqiqot texnikasi deb ham yuritishadi.

Lingvistik geografiyaquyidagi tushunchalarga asoslaniladi:

Izoglossa. Bu so‘zlotincha bo‘lib, *izo* – teng, *glossa* – til degan ma’nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki bir til, qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mosligi darajasiga ko‘ra tarqalishini ko‘rsatadigan shartli belgidir. Izoglossalar vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatik shakllar, leksemalar bajarishi mumkin. Shu tufayli uning *izofonema*, *izomorfema*, *izoleksema* tiplari belgilanadi Masalan, turli sheva va tillarda tez-tez takrorlanuvchi cho‘ziq “o:” unlisi izofonema sifatida, -ə/a ko‘plik affiksi varianti izomorfema sifatida, vazmin ~*саläқа* ~ *salaqa*, kasallik ~ *ѣраң*~*iran* kabi so‘zlar izoleksema sifatida qatnashishi mumkin. Shuningdek, adabiyotlarda izoglossalarning *izofon* (fonetik izoglossa), *izomorf* (morphologik izoglossa), *izoleks* (leksik izoglossa), *izosema* (semantik izoglossa) haqida ham ma’lumotlar beriladi.

Izoglossalar qarindosh yoki qarindosh bo‘lmasdan tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1. O‘zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylilikka ega bo‘lgan tillarga aloqador bo‘ladi.

2. Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari (kontakti) natijasi samarasi sifatida yuzaga keladi va har ikki til uchun umumiy bo‘ladi. Bunda qarindosh bo‘lmasdan tillar o‘z mustaqilligini saqlaydi.

Areal. Izoglossalarning tarqalish hududini bildiradi. Yuqoridagi izoglossa turlarining bir necha hududlarda tarqalishini ko'rsatadi. Masalan, birlamchi cho'ziq unlilar Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa hududlarda tarqalishi maxsus belgilarda kartada aks ettiriladi.

Areal termini biologiya, geografiya, kimyo, antropologiya fanlarida ham qo'llanadi. Biologiyada hayvonlar va o'simliklarning, geografiyada tabiat hodisalarining, kimyoda tabiiy boyliklarning, antropologiyada xalqlar va irqlarning tarqalish hududlari kartalashtiriladi.

Til landshafti. Muayyan hududda til va bir necha shevalardagi izoglossalar va ularning joylashishi xususiyatidir. Ular turli ranglar vositasida ko'rsatiladi.

Innovatsiya. U izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Masalan, labial singarmonizm qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, qirg'iz tilida mustahkamlanib qoldi va bu til orqali boshqa til va shevalarga tarqaldi. Demak, labial singarmonizmning innovatsion markazi vazifasini keyingi davrlar uchun qirg'iz tili bajaradi.

Lingvistik karta. Bunday kartalarning xususiy va umumiy turlari amalda bor. Aksariyat hollarda lingvistik kartalar kontur kartalargda amalga oshiriladi. Bir izoglossaning tarqalishi ko'rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettirilgan karta esa umumiy lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til hodisalarini – izoglossalarni shartli belgilar vositasida ham, bebosita o'zini ham yozish mumkin.

Sheva yoki til hodisalarini kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan kartaning turi **lingvistik atlas** deyiladi. Lingvistik atlas umumlashtirish xarakteriga ega bolib, u sheva yoki biror tiining tarqalish chegarasini ko'rsatgan rangli kartalar yig'indisidir. Dunyo amaliyotida lingvistik atlasning klassik namunalari bop. Bular quyidagilar:

Venker G. Shimoliy va markaziy Germanuyaning dialektokogik atlasi. 1881 (6 karta).

Vrede F.Nemis lingvistik atlasi. 1926-1932 (6 jild).

Jilyeron J., Edmon E. Fransiya lingvistik atlasi. 1896-1908.

Yaberga K., Yuda I. Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlasi. 1928 va h.k.

Bular ichida J. Jilyeron, E. Edmonlarning lingvistik atlasi boshqa shu xildagi atlaslarning tuzilishiga metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Lingvistik atlas faqat dialektologik maqsadda emas, balki dunyo tillarinh tarqalishini ko'rsatish maqsadida ham yaratiladi.

2. *Areal lingvistika(lingvistik geografiya)metodlari*. Areal lingvistik (lingvistik geografiya) shunday sohaki, u har bir sheva va dialekt haqida, madaniy, tarixiy xususiyatlari, o'ziga xosligi bilan yaxlit ravishda tilshuning tarix, etnografiya bilan shug'ullanadigan xodimlar, mutaxassislarni tanishtirish imkonini beradi. Lingvistik geografiyada, avvalo, o'rganilayotgan sheva kartasi uchun asos sifatida aholi geografiyasini aks ettirishga mo'ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlari belgilab chiqiladi. Sheva kartasi uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko'rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasi tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo'yicha texnikasi belgilab olinadi.

O'zbek tili lahjalarining tarqalishi



1. Қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси
2. Ўғуз лаҳжаси
3. Қипчоқ лаҳжаси

Areal lingvistikaning asosini lingvistik tadqiqotlarda foydalananiladigan til hodisalari tashkil etadi. Shuning uchun *areal lingvistikaning metodlarini* farqlash muhim ahamiyat kasb etadi⁸.

⁸Taniqli olim V.M. Jirmunskiy dialektologik atlas yaratish metodikasi deganda yning ikki tamoyilini tushunadi: muayyan hududdagi sheva xususiyatlarini yalpi o'rganish va har bir kartalashtiriladigan

Ular quyidagilar:

1. Muayyan til(shevalar) areali doirasida til (sheva) faktlarini *qayd qilish*. Bu jihatdan dialektologiya va lingvistik geografiya metodlari mos keladi. Sheva faktlarining haqqoniyligi areal lingvistikaning mukammalligini ta'minlaydi.

2. Areal lingvistika uchun tanlanadigan sheva materiallarini *sharplash*. Dialektologik atlas tuzishda sheva faktlarining sharhi muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi aniq lingvistik vazifalarini bajaradi:

a) o'rganilayotgan til yoki shevalarining aloqada bo'lgan (qo'shni) til va shevalar bilan *interferensiyasi* natijalarini talqin qilish. Avvalgi sahifalarda ta'kidlanganidek, o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq, turkman va tojik tili hamda shevalari bilan kesishgan. Shevalar kesishgan joyda har ikkala til shevalariga o'xshamagan shevalar paydo bo'ladi. So'zsiz, bu shevalardagi o'zbek tiliga xos bo'lgan xususiyatni ajratib olish muammosi paydo bo'ladi. Bu muammo sharplash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan aralash va qo'shni yashaydigan o'zbeklar shevasida egalik affiksi va o'rin-payt, chiqish kelishigi o'rtaida "n" undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: qo'lida ~ *әлъндә* ~ *älindä*, qolidan ~ *әлъннән* ~ *älinnän* va b. Qirg'iz tilida bunday pozitsiyada interkalyar n undoshining yo'qolib borishi ham o'zbek tili shevalari bilan interferensianing natijasidir.

b) *ijtimoiy omillarni hisobga olish*. Interferentsiya natijalariga baho berishda turli xildagi ijtimoiy omillarni hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bunda ikki sheva yoki tilning interferensiya sharoitida qo'shilib ketishi chog'idagi til qarshiligi bo'lishi hisobga olinadi. Bunga Qashqadaryodagi "й/j"lovchi shevalar "дж/ž"lovchi shevalarga qorishuvi natijasida "й/j"lovchi shevalar ahonisining ko'pligi tufayli "й/j"lashishning ustun kelishi misol bo'la oladi.

d) *muayyan hududda turg'unlashmagan til hodisalarini sharplash*. Ikki sheva yoki dialektga xos xususiyatlarning shu sheva va dialektlarda qo'llanishi hamda ulardan birining g'olib kelmasligi interferentsianing tugallanmaganligini, ya'ni bir sheva ikkinchi shevaga singib ketmaganligini bildiradi. Bunga o'zbek tilidagi "□/a"va "a"lashish, "й/j"va "дж/j" hodisasining parallel qo'llanishi misol bo'la oladi.

e) *konvergensiya hodisalarini farqlash*. Ma'lumki, o'zbek tili taraqqiyotida shahar shevalarida ө/ө- о/o, ү/ү - у/u, и/i: - ы/ї: unlilari konvergensiya uchragan. Ular ham kartada izohlar bilan beriladi va hk.

3. *Innovatsion markazni aniqlash*. Bu tamoyil, albatta, til tarixi bilan bog'langan. U yoki bu izoglossaning paydo bo'lish nuqtasini aniqlashda til tarixi faktlariga tayaniladi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda "й/j/-дж/ž" paralleli

bo‘lмаган. Hozirgi qipchoq shevalarida va ba’zi turkiy tillarda so‘z boshida “дж/ž”ning paydo bo‘lishi ikkilamchi hodisadir. O‘zbek shevalarida “дж/ž”lashishning “й/j”lashish (qipchoq lahjası shevalarida **джахшы** ~ **җашы**) o‘rnida **йахшы** ~ **jaxşı**) varianti paydo bo‘lmoqda hamda u tobora kengroq tarqalmoqda. Ko‘rinadiki, “й/j”ning innovatsion nuqtasi qadimgi turkiy til bo‘lgan. Hozirgi singarmonizmni yo‘qotgan shevalar ham qadimda singarmonizmli bo‘lgan. Bunda ham innovatsiya nuqtasi sifatida qadimgi turkiy til qatnashadi.

4. Til substratlari ta’sirini aniqlash. Substrat hokim til yoki shevaning qoldiqlari bo‘lib, muayyan hududda hokim til elementlari qolgan bo‘ladi. Masalan, hozirgi Xorazm shevalarida “Avesto” tilining substratlarini uchratish mumkin jumladan, Xorazm (Hvairizm), Asfandiyor (Spandudota), Bahrom (Varxram) O‘zbek va tojik shevalari interferensiyasi sharoitida tojik shevalariga xos xususiyatlar shu shevalarda saqlanib qoladi. Bu substratlar ham izohlar bilan kartalarda aks ettiriladi.

O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi. O‘zbekistonda dialektologik atlas yaratish ishi endigina rivojlanmoqda. Bu sohada Sh. Shoabdurahmonov, A. Jo‘rayev, Q. Muhammadjonov, A. Shermetov, Y. Ibrohimov, N. Murodovalarning tadqiqotlari mavjud. Sh. Shoabdurahmonov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib shevalar atlasi yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. A. Jo‘rayev areal lingvistikating nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildi. Q. Muhammadjonov shimoliy o‘zbek shevalarini, A. Shermetov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalar Orol bo‘yi o‘zbek shevalarini, N. Murodova Navoiy viloyati shevalarini kartalashtirgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lingvistik geografiya nima?
2. O‘zbek shevalari atlasi deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbek shevalari kimlar tomonidan kartalashtirilgan?

O‘ZBEK DIALEKTALOGIYASI FANIDAN MUSTAQIL ISH TEST.

1. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlanishida o‘z hissasini qo‘sghan olimlardan qaysi biri Orol bo‘yi o‘zbek shevalarini kartalashtirgan?

- A) A.Shermetov
- B) Y. Ibrohimov
- C) Q.Muhammadjonov
- D) A. Jo‘rayev

2. Fransuz tilining dialektal atlasini qachon qaysi olim yaratgan?

A) Jyul Dyuperron

B) Jyul Vern

C) Jyul Jil'eron

D) Jyul Sil'eron

3. Quyi Qashqadaryo shevalarini qaysi olim kartalashtirgan?

A) A.Shermatov

B) Y. Ibrohimov

C) Q.Muhammadjonov

D) A. Jo'rayev

4. O'zbekistonda birinchi bo'lib qaysi olim shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi?

A) A.Shermatov

B) Y. Ibrohimov

C) Q.Muhammadjonov

D) Sh. Shoabdurahmonov

5. Shimoliy o'zbek shevalarini qaysi olim kartalashtirgan?

A) A.Shermatov

B) Y. Ibrohimov

C) Q.Muhammadjonov

D) A. Jo'rayev

6. O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llanadigan transkripsion tizim kim tomonidan ishlab chiqilgan?

A) Reshetov

B) Polivanov

C) Jyul Jil'eron

D) Borovkov

7. L/N undoshlarining almashinishi qarluq-chigil –uyg'ur lahjasining qaysi dialektida mavjud?

- A) Toshkent
- B) Namangan
- C) O'sh- O'zgan
- D) Samarqand – Buxoro

8. Tushum- qaratqich affiksidagi n//d//t tovushlarining almashinishi bilan xarakterlanadigan shevalarga qaysi grupper shevalari kiradi?

- A) Andijon,Qo'qon,Namangan
- B) Qo'qon, Toshkent, Qarshi
- C) Andijon, Marg'ilon, Qo'qon
- D) Qo'qon, Qarshi, Namangan

9. Toshkent, Farg'ona, Xorazm shevalarida hurmat ma'nosini ifodalaydigan affiks qaysi?

- A) -lar
- B) -lər
- C) -dar
- D) -nar

10. Navoiy viloyati shevalarini qaysi olim kartalashtirgan?

- A) A. Shermatov
- B) N.Murodova
- C) Z.Ibrohimova
- D) A. Shermatov

11. Qaysi olim o'zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib, uni yana dialektga ajratishni tavsiya qiladi?

- A) Reshetov
- B) Polivanov
- C) Jyul Jil'eran
- D) Borovkov

12. O'zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini qaysi olim yaratgan?

- A) Reshetov

B) Polivanov

C) Jyul Jil'eron

D) Borovkov

13. Metisatsiya so'zining ma'no keltirilgan variantni toping?

A) Qardosh bo'lмаган тил ва shevalarning aralashib ketishi

B) Qardosh tillar va shevalarchatishuvi

C) Shevalardagi o'xhash va noo'xhash xususiyatlarni hisobga olib, ularning guruuhlarini belgilash

D) Lahja va dialektlarning o'zaro chatishuvi

14. Fonetik xususiyatlardan bo'lgan ch/sh undoshlarining almashinishi qaysi lahjada uchraydi?

A) Qarluq-chigil-uyg'ur

B) O'g'uz

C) Qipchoq

D) Shimoliy o'zbek shevalarida

15. k va g undoshlarining maksimal yumshoqligi qaysi lahja xususiyatiga kiradi?

A) Qarluq-chigil-uyg'ur

B) O'g'uz

C) Qipchoq

D) Shimoliy o'zbek shevalarida

16. Unlilar o'rtaida p, k, q undoshlarining jaranglashishi qaysi lahja xususiyatiga mansub?

A) Qarluq-chigil-uyg'ur

B) O'g'uz

C) Qipchoq

D) Shimoliy o'zbek shevalarida

17. Jo'naliш kelishigi affiksining a// ə(ə) formasida qo'llanishi masalan atъ ma||ad.orf.otimga ushbu xususiyat qaysi lahja xususiyatiga kiradi?

A) Qarluq-chigil-uyg'ur

- B) O'g'uz
- C) Qipchoq
- D) Shimoliy o'zbek shevalarida

18. Qaysi lahja shevalar miqdoriga va shu lahjada so'zlovchi aholi soniga ko'r'a o'zbek tili dialekt kompleksida (boshqa lahjalarga nisbatan) oxirgi o'rinda turadi?

- A) Qarluq-chigil-uyg'ur
- B) O'g'uz
- C) Qipchoq
- D) Shimoliy o'zbek shevalarida

19. Qaysi tilning asosiy fonetik xususiyatlaridan biri umlaut hisoblanadi?

- | | |
|------------|-----------|
| A) uyg'ur | C) qozoq |
| B) qirg'iz | D) o'zbek |

20. –op affiksidagi o fonemasining Samarqand va Buxoro shevalarida turg'un bo'lisligha sabab nima?

- A) Etimologik jihatdan ushbu affiks birmuncha qadimiyroqdir
- B) Affiksdagi ochiq o fonemasi o'zining turg'unligi bilan xususiyatlanadi
- C) Unda tojik tili elementining mavjudligi bilan
- D) B va C variantdagi javoblar to'g'ri

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996 .
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
4. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.
5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. Rixsiyeva K. G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

11-Mavzu: Adabiy til va dialekt munosabati.

Reja:

- 1. Adabiy tilning ta'rifi.**
- 2. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari.**
- 3. Adabiy til va tayanch dialekt.**
- 4. Badiiy adabiyot va dialektizm.**

Tayanch tushunchalar:

Adabiy til [literary language] – me'yorlashgan til.

Adabiy tilning shakllari [forms of literary language] – adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari.

Tayanch dialekt [basic dialect] – adabiy tilga biror jihatdan, ya'ni fonetik yoki morfologik jihatdan asos bo'ladigan dialekt, sheva.

O'lik til [dead language] – muomaladan chiqqan til.

Matn

1. Ma'lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo'lib, u me'yorlashgan yoki me'ylashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta'rifni berish mumkin:

Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va gramma tik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir.

O'zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi.

Adabiy til biror dialektga teng kelmaydi, u bir til doirasida barchga birday xizmat qiladi, biror dialekt ham adabiy tilga tenglashtirilmaydi.

Adabiy til va dialektlar turli funksiyalariga ko'ra farqlanadi:

1. Adabiy til davlat, siyosat, fan, san'at tili hisoblanadi, ayni zamonda bu tilda savodxon shaxslar ish ko'radi. Dialekt esa muayyan hududda qo'llanadi va shu hududning o'zidagi aholigagina xizmat qiladi.


2. Adabiy til yozma va og'zaki shakllarga ega bo'ladi, dialekt esa faqat og'zaki ko'rinishga ega.

3. Adabi til qat'iy amal qilinadigan me'yordan iborat bo'ladi. Dialekt ham muayyan hududda o'ziga xos me'yori bo'ladi, lekin u umumtil doirasiga chiqqolmaydi.

4. Adabiy tilning funksional uslublari rang-barang, dialektlarda bunday uslublar to'g'risida fikr yuritilmaydi.

5. Adabiy til va dialektlar o'rtaasida ziddiyatlar bor, lekin ular adabiy tilning boyishiga xizmat qiladi (10-rasm).

10-rasm



Har bir milliy tilning ikki bosqichi bo'ladi:

1. Milliy tilning quiy bosqichi. Bu mahalliy shevalar demakdir.
2. Milliy tilning yuqori bosqichi. Bu uning adabiy tilidir.

Ayrim manbalarda bu ikki bosqich oralig'da *koyne* termini bilan yuritiladigan til to'g'risida ham ma'lumot beriladi, ya'ni aksariyat dialektlar uchun umumiyl bo'lgan so'zlashuv tili *koyne* deb yuritiladi. Bunga xalq og'zaki ijodi asarlari tilini ham kiritish mumkin, bu asarlar tili ham adabiy til, ham mahalliy shevalarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun ham shevalar o'rganilganda, xalq og'zaki ijodidan ko'plab misollar keltiriladi.

2. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari. O'zbek adabiy tili ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki adabiy til orfoepik me'yorlarga bo'ysundiriladi. Og'zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha sathdagi

rasmiy majlislar, o'qish-o'qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo'llanadi. Yozma adabiy til esa orfografik qoidalar asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy o'zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an'anaviy, ramziy va boshqalar.

3. Adabiy tilning tayanch dialekti. Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g'ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda "o'lik til" degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida "o'lik tillar" mavjudligi haqida ma'lumotlar ko'p.

O'zbek adabiy tili shartli ravishda **fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg'ona dialektiga tayanadi**. Ma'lumki, Toshkent shevalari 6ta unlili (y/u, o/o, ə/ä, e/e, ъ/i, қ/ā) dialektdir. Farg'ona dialektidagi so'z shakllari, xususan, fe'l shakllari o'zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog'lab qo'yish juda ham to'g'ri emas, balki o'zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallahib boradi. Shu ma'noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo'lib qoladi. Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining unsurlari ko'p uchrasa-da, unda qipchoq va o'g'uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o'rirlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun, jo'natmoq, jo'ni, jo'nalish* so'zlari qipchoq lahjasiga xosdir. Bu so'zlarning ayrim qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga oid shevalarida *йун, йөнәт, йөнъ(и:шнънг йөнънъ бъл* - Turkiston), *йөнәлъш ~jün, jönät, jöni, jönäliš* variantlari bor. Adabiy tildagi *keljak, bo'lajak, o'laroq, kelası* kabi soz shakllari aslida o'g'uz lahjasini shevalariga xosdir.

4. Badiiy adabiyot va dialektizm.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *fonetik dialektizm, morfologik dialektizm* va *leksik dialektizm* turlariga ega bo'ladi.

Leksik dialektizm shevaga oid so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanishidir. Masalan, *darpanmangla*(bezovtalanmanglar (Xorazm), ...*kelinbiyning biror marta noroziligini eshitgan emasman*(Qo'nalg'a). *Toshkentdagи axtiqlarini* (nevaralarini) o'zlari *Urganchga kelganlari-dayam ko'raveramiz* (Qo'nalg'a).

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. *Rozi bo 'ldi, palakat* (Qo‘nalg‘a), *galdi* (“Xorazm”), *Bormasangiz bo 'lmiydi* (“Qo‘nalg‘a”). ...*zeykash* (zaxkash) *tomonga enib...* (Avaz K. “Qo‘nalg‘a”)⁹.

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo‘llanishidir. Masalan, *Shatta*(shu yerda,“Qora ko’zlar”).*Dim* (*juda*) *gech* *galdingiz* (“Xorazm”).*Qarindoshim bilan bir maishat qilali* (Qo‘nalg‘a).

Sintaktik-stilistik dialektizmlar gap qurilishida shevaga xoslikda ko‘rinadi: *Shukur, odamga o 'xshab so 'zlab bilar ekansiz* (“Qo‘nalg‘a”). *Alni na, o 'n martu yuvamilar* (“Qo‘nalg‘a”).

Bu lahja tarixan qarluq urug'larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi tukyu(turk) qabila birlashmasiga mansub bo'lib, uzoq o'tmishda Oltoyning g'arbiy tumanlarida yashaganlar, Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552 yilda) g'arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung'oriyani, Mo'g'ul tog'inining janubiy yon bag'ridan to Ile daryosining shimaligacha bo'lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o'rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg'onani, Toxaristonning ayrim hududlarini egallagan edilar. X asrda Yettisuvni ishg'ol qilgan va katta territoriyada hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo'lgan o'lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo'lgan. Qarluqlarning tili

◊ 2 - topshiriq. Berilgan matnni o'qib , fonetik xususiyatlari ko'ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling.

ERTAK

Кунлардэн бир кун ўлчн эръгэ шундай депть: дунийдэ нъмэнъ еть шърън екенльгънъ сорәп, дунийдэгъ бәрчә етләрдъ тәтъп кельшти буйъръпть. Эръ кетъпть. У дунийнъ эйнәлып бутын етләрдъ тәтъп, кечьгып қолгәч, қолдърғч уннэн хәбәр әльш учун йолгә чъкыпть. Йолдә эръгэ дуч келъп уннэн сорәпть: „дунийдэ нъмэнъ еть шърън екән”, - деп сорәгәч, эръ эйтъпть: дунийдэгъ бәрчә етлардэн әдәм еть шърън екенънъ эйтъпть. Қолдърғч эрънъ „тъльинъ чъкар бър опәй”, - депть. Эръ тъльинъ чъкргән екән тъльинъ чышләп, узъп әльпть.

◊ 3 - topshiriq. Berilgan matnni o'qib , fonetik xususiyatlariga ko'ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling .

Шаддұт

Шаддұт ўн саккъз мънг Әламнұ Әладъ. «Мань худә деӘлар» деп халққа е:лән қыладъ. Халқ: «Сан худә бўлсаӘ жаннатъӘ канъ?» деп сүрайдъ.

Шаддұт ўн саккъз мънг Әламнұ халқынъ талап, тъләларънъ, кумушларънъ тӘртъп Әладъ, уларнъ жаннат қуръшга сарф қыладъ. Шаддұт устәларни йъғып, пъләнларни тузъп, жаннат қуръшнъ буйурадъ.

Жаннат таййӘр бўладъ. Дараҳтларни тубъ Әлтъннан, йапроқларъ йӘкуттан, шӘхларъ марваръттан.

Устәлар бӘшшуғъ кельп Шаддұтга айтадъ:

-ПармӘнъӘъз бажарълдъ, канъ марамат къльп авал ўзъӘъз къръб қуръӘ.

Шаддұт Әтъга мънъп түғръ жаннаттъ дарвӘзасъга караб бӘрадъ, Әттан тушъп кърмӘкчъ бўладъ. Бър айӘғынъ йерга күйадъ, бър айӘғынъ бўлса ўзаӘъга кӘладъ.

Шу замӘн арзӘъл кельп унъ(Ә) жӘнънұ Әладъ . Шаддұт жаннатга къраӘлмай, үладъ. (Шоғиркон районидан олинди).

◊ 4-topshiriq. Matnni o'qing. Morfologik tahlil qiling. Fe'l shakllarini aniqlab, ularni izohlang.

Күлләдән бър кун оттӘрьммънәм тӘгәммъкъгә кърудүг, бъзъ йәңгәчәм қәрши Әддъ, шъйпӘңгә откүздъ. Ендъ Әлдъмъзгә у-бу қойъп түрүддъ, шу вәхттә қошнъсъ көтъкә чъкъп қолдъ.

- Қошнъ, көтъғыңгъздән босә бър кәсә берън.
- Бър хурмәч қолудъ ындығынә гүзәргә сәткәнъ әпчып кеттъйә.
- Есъзгына, зәддәв-мәддәвийәм йо:мъ, бәшъиммъ тәтәләвӘләй дудум.
- Зәддәвъ йоғу, езъмъзгә әп қойгәндым, өшәндән берәқслей, бәшънъзгә восә.

-Худайә мәлъиңз гәмуш восун, йольммъ йәқын || йеқын қылдъз. Всй қошнъ шәшългәнънән ҳәл сорәшәм есъмнән чып қәпть, ендъ сорәшәйлүк: түзүмъсъз. Түнүкүн тәвънъз йоф деп ышътып хълә йырәгъм әчъшмәсә.

-Хә, ендъ түзүмән. Духтур кельп қәрәп, дәръ-мәръ йәзъип берүдъ ъчып әнчә өзүмгә кеп қәддым.

-Үләйә эйълләрънъз бәхтъгә түзү волун еткәндәй, оғльиздән хәт келүттъмъ? Тынчәкәммъ?

-Хә, келүттъ, тынчъмуш, ойнәп-кулуп йургәнъмуш. Ъкучкун боддъ рәсъем йүвӘръпть, ғәләтъ Әркәсъде пәпугъ вәр шәпкәләдән кыйвӘпть.

-Хә тузу:, тынч восә болть. Оғлъз бомәсә морйәгәкәндә пәпулуг шәпкә кыйгән босә.

-Хә, шунәқәймуш.

-Всй өлмәсәм, әшшъ қып дәмләп чъку:дым, ендъ ләндҗәм боп қәддъ. Откән сә::р шунәқә тәклиғ әш қылу:дым тә:гы әп, құрмәч боп қәпть. Хоп көрьшгүнчә хәй йокәсә.

-Хәй. Уннән кън йәңчәмъз бъзъ Әлдъмъзгә кеп: съләнъйәм зеръктъръвӘддүмъ... хәтунләгә гәб босә. Шунъчун әйтышәдъдә: „Еләккә чъкән хәтуннъ еллыг Әгуз гәпъвәр

деп". Ъктемъз бървоп қолду:мъ, болдъ гэпш бойтэверэмъз. Ҳэй, эбэн түзу:мъ, эчэнлэйэм ўурьтълемъ, үкелэрън.

-Хэ, ҳэммэлэръ йэхшь, кърсэн сорэп қой дейшудъ.

-Сломэт болусун, хъч келэйэм демейсьлэ.

-Көрмейсьмъ ышлэ джудэ коп, ендэ муннэн бэкэ кеп турэмъз. Ҳэй. ендэ бэз турэйлук, бър ышмънэм бъджджайгэ кетуткэндуг бейгэ кървотэйлуг деп қолдым, Мэнү: Ҵинэммъяэм башлэп кърведедьм.

﴿ 4-topshiriq. Matnni morfologik, leksik xususiyatlariga izoh bering. ﴾

Бухтардиалекти

Амърнь тэй

Үккъ араб Бухтарга бэрган. Бухтар амърнь бър тэй бүгэн. Шу тэйнъ амърнь сайсларь (отбоқарларь) сүрьшга чырғранакан. Тэй Өхурдан су: ычкан вахтъда Өгзънъ Өчъб чайқаган. Тъльнъ Өстъда бър хэлль бэргеканлыгънъ араблар күрбэ қладь. Сүгун үккъ араб шу тэйнъ Өламъзмъ (ольб бүларми кан) деб маслахатлашадь, ыккавънъ масльхатъ бър йердан чьгадь.

Амърга арзга кърадъла (р).

Амърга айтадъларкъ, бэз йытърган тэймъзнъ съзнъ Өтхэнада тэндэй.

-У қайсъ тэй екан ?

-Түрьк қрабайръ, йэшь үккъ йэшга йеткан, -деб айтадъ арабла (р).

Амърнь бекларь :

-Бу тэйнъ нышналарънъ айт.

-Бэзнь тэйнъ тъльнъ Өстъга бър дэна хэлль бүладь.

Агар шу хэл бүса тэй бэзнькъ, бүлмаса тэй съзнъкъ, -дэйдъ арабла (р).

Текшръб күрадълар. Тэйнъ тъльнъ Өстъга хэлль бэргеканлыгъ анъқланадь. Сүгун арабларнъ кълган да:вэсь түгрь деп каттакёнла (вазирлар) хъсбэгэ Өладъла. Сүгун ундан къйн тэйнъ амър беръб йуврьшга мажбур бүладь.

Сүгун амър ўйлап Өташын бүладь. Арабларнъ хаммасынъ тухмынъ йүк қыльб йуврьшга буйурадь. Вазър айтадъкъ ўлдурып н ѿма қъласъз, улардан хар йэль араб пул: Өлън, пуль йетмаганларнъ кетърьб ышлатын.

Хөкәз, тэй ынкълбагча араблар бэрг-йүгънъ амърга берайдъ, ынкълбдан къйн арабла (р) амърнъ күлдэн күтъладь.

Тэйнъ Өлгэн къмла (р), азбънъ тэрткан къмла (р) бүлдъ.

Бурун вахла (р) га калхус бүлмаган, сүгун арабларнъ йеръям бү (л) маган, шу учун ула(р) чэрвэчъльк бълан (мънан) шуғулланган.

Amaliy mashg'ulot 16.

Qipchoq lahjasidagi matnlar tahlili

﴿ 1-topshiriq. Savollarga javob bering. ﴾

1. Dialektizm deb nimaga aytildi?

2. Morfologik dialektizm nima?

3. Fonetikik dialektizm nima?

4. leksikik dialektizm nima?

5. Qipchoq lahjasining eng muhim fonetik belgilari qaysilar?

6. Qipchoq lahjasining asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.

7. Qipchoq lahjasiga xos qanday so'zlarni bilasiz?

8. Qipchoq lahjasiga birlashuvchi shevalarda unlililar soni nechta?
9. Qipchoq shevalarida kelishiklar soni nechta?
10. Qipchoq lahjasida hozirgi zamон fe'l shakli.

Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.

Qipchoq qabilalari ham uzoq o'tmishda Oltoy o'lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. XIII asr o'rtalarida ular **kimak//imak(yimak)lar** davlati tarkibida qoladilar. XI asrlarda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar.

VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo'yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo'ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O'rta Osiyo, Volga bo'yi territoriyalarida istiqomat qiladilar¹.

Qipchoq lahjasining fonetik xususiyatlari:

Qipchoq lahjasi shevalarida singarmonizm qonuni to'liq amal qiladi. Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar qayd qilinadi:

- kontrast juft unlilar [y-ъ, o-়, ы-и, ъ-ѣ, а(়)-়] mavjud.
- palatal singarmonizm to'liq saqlanadi, labial singarmonizm esa esa qisman saqlanadi;
- diftonglashish kuchli: "e, ়o, ়়";
- so'z boshida й undoshi **дж(dj)** undoshiga o'tadi: yo'l - **djol**, yamon - **djaman**;
- "g" va "g" undoshlari "й"ga o'tadi: yig'in - **джийн**, tegdi - **тъидъ**, sigir - **съиър**;
- unlilar o'rtasida p, k ,q undoshlari jaranglashadi: g়p - **q়bi**, ek - **egъn**, chiqin - **chъg'ъn**;
- x undoshi q undoshiga o'tadi: xotin - **qatin**, tuxum - **tuqum**, xayol - **қыйал**, xat - **qat**; aksincha q undoshi x undoshiga ham o'tadi: vaqt - **vaxt**, aqli - **axli**.
- so'z oxirida k, q undoshlari tushib qoladi: sariq - **sарб**, kichik - **kъчъ**;
- so'z boshida h undoshining ortadi: ayvon - **haўvan**
- so'z o'rtasida va oxirida g', q, k undoshlari "v" ga o'tadi: **avuz** (og'iz), **bav** (bog'), **tav** (tog'), **bo'üav** (bo'yoq), **eлv** (ellik).

Morfologik xususiyatlarii:

- qaratqich va tushum kelishiklari affiksida -n//d//t tovushlari almashadi: *-тънг//пънг, -дънг//дънг, -тънг//тънг, -пъ//пъ, -дъ//дъ, -тъ//тъ*.
- kishilik olmoshlari jo‘nalish kelishigi shaklida *mag‘an, sag‘an, ug‘an* shaklida qo‘llanadi;
- so‘zga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda, regressiv assimilyatsiya yuz beradi: jigitlar - *djigillar*, atlar – *allar*.
- harakat nomi –v/yv/yw affixsi bilan ifoda qilinadi: *baryv, kelyv, qalyv*.
- hozirgi zamon davom fe’li -*джатър* affixsi bilan hosil qilinadi: *barъбджатър, кетъбджатър* ;
- kelasi zamon sifatdoshi –*тъг‘ан* фақшлқш bilan hosil qilinadi: *keləтъг‘ан, baratъг‘ан*.
- hozirgi-kelasi zamon fe’lining III shaxsida –di affixsi qatnashmaydi: keladi - *kelə*, boradi – *bara*.
- *bilan* ko‘makchisi –man/mən tarzida sintetiklashadi: oyog‘l bilan – *aÿag‘ыман*, ishi bilan –

❶ 1 - topshiriq. Berilgan matnni o’qib , fonetik xususiyatlariga ko’ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling.

Bekobod Eski ovul qishlog‘i shevasi

Неммә джоқта сұратан қызыр джетър. У қытабystan chyshыр kettə джoldan shə::rчhəgə qɔrap джүгə bɔshladь. Джол джоғ‘асыда paxta eгылғен edь. У bъrdən paxtazarg‘a qarap byryldь. Нəр bъr tүр paxta хуттъ og‘an ыйылър salam берəджатqандай edь. Barаджатър узаqta kөтəргүлгөн chɔң-tozandi kөркөр qɔladь. Bu chɔң tozan o‘gan qarap keləberədь, qarasa bъr mashыn tola qyzlar keləджатър. Olar avazlarынъц barьcha ashyla әйтър kelədь. O mashын өтър ketkənchə qɔrap tyrdь. Кей йənə ketə bashladь. Оның əсіль аты Qoshqar. Nəkъn ortaqlары həzəlləshыр Shayыr derdь. Shayыr dəgənchəйəm bar. O hər zaman - hər zamanda sherəm джазър tyradь. Qoshqar kech baqqanda үйдегə джетър alдь, үйдегə кыгър апасы әркəгən avqattan azgana джер dərrəv джатър qɔldь. O джыдə chɔrchag‘n edь. Bygyn о qɔncha джол джурдь, ахър.

❷ 2 - topshiriq. Berilgan matnni o’qib , fonetik xususiyatlariga ko’ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling.

Бешть бешкә қоссаннар ^вом боладь < ўн бүлади,
^вон тоқльынъ теръесь том боладь, <түн бүлади.

Джъгъттэ алған йарь джақшь боса,
Бър муратқа джеткэнъ шо(л) боладь.

Тойға мънып келгәнъм джъйрән чьбар,
Қой- қойдағы қувмақ сөз быйдән чыгар,
Джъгъттың алған йарь джақшь боса,
Тал чьбықтай буралып үйдән чыгар.

Арғымактың балась ҳарымайдь,
Дәрь дыйдъ джурәккә сарымайдь,
Джъгъттың алған йарь джақшь боса,
Йеки женъи сырәйәм ҭозымайдь.

❸ 3 - topshiriq. Berilgan matnni o'qib , fonetik xususiyatlariga ko'ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling .

Tamahrin qishlog'i shevasi (Xatirchi tumani).

Туврь былән Ейрь

Қадым заманда бър қышлақта бър джыгът барәкан. Вонь ать Туврьбайәкән. Вонь быттәгына аръық атъдан башқа хеш нерсәсә джогәкән. Барып-барып қышлақта ыш қамапты, шоннан соң о атъны мънып мәрдькәр ышләшкә кегитп. О атъ мънып джол джұрыпты, джол джурсәйәм мол джұрыпты Джолда уна бър пыйәдә қыш джолдаш болп. "Қайға бараджательсан?"-депті Туврьбай."Мәрдькәрчылъққа,"- депті ҳальға адам. Туврьбай вонь атъны сораса, уна Ейрьбай дев айтыпты. О йам Туврьбайды атъны сорав ағандан кей айтыпты: "Екәвымъзды атъмъз джыдә мас экән, ке, джора боламъс",- депті. Туврьбай вонь пыйәдә джүргәнъыға рәхмъ кеб, уна атъни бергәнәкән, о боса атъ мънып бър хамчы урып, джөнәп қапты. Туврьбай нымә қылышынъ былмәй кетъверыпты. Бър орманға джетып өрдә бър тандырга көзъ чүшкүпты. "Ке, караңда джүргәнчә, шо тандырдь ъчыға қырып джатай,"-депті. Бу джәй хайавандардың бәзм қылальрган джәйъкән, арслан пашшайәкән, о воннан түрлі мейлість башлатп. О гәптерип боганнан кей тулкъ дастан башлатп: "Шо орманда арқасында бър гар бар. Мен шо гарда тураман. О джердә көргә-төшәктәр, авқаттар, ҳәммәс бар." Воннан кей шағал гәб башлатп: «Мен турайткан джердә бър чычқам бар. Вонь күрхта тыллась бар, әр күнъ о шо түллаларынъ ағтаңқа ағчығып ойнайды.» Еннін навват айыққа кепті: "Шо орманда бър дарах бар.

Amaliy mashg'ulot 17.

O'g'uz lahjasidagi matnlar tahlili

Savol va topshiriqlar.

1. O'g'uz lahjasiga qaysi dialektlar birlashadi?
2. O'g'uz lahjasining qisqacha tarixini bilasizmi?
3. Lahjaning fonetik va morfologik xususiyatlarini aniqlang.

Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.

Qadimda o'g'uzlar Ile daryolari bo'yalarida shakllanib, IX-X asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi va Orol bo'yi tumanlarida istiqomat qilganlar¹. Keyinchalik g'arbg'a qarab siljiganlar.

Bu lahja vakillari O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida istiqomat qiladilar.

O'g'uz lahjasi, asosan, Xorazm viloyatida keng tarqalgan, lekin bu viloyat faqat shu lahjadan iborat degan so'z emas. Professor F.Abdullayevning ko'rsatishicha, bu viloyatda qipchoq lahjasiga oid shevalar ham bor¹.

O'g'uz lahjasining barcha shevalarida 11 ta unlilik tizim amal qiladi:

- a(a)** - umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi.
ə(ə) - aksariyat turkiy tillarda qo'llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi.
e(e) - old qator, o'rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi.
и(и) - old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi.
ы(ы) - orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi.
y(y) - orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi.
ঃ(ঃ) - old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi.
o(o) – orqa qator, o'rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi.
ө(ө) - old qator, o'rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi.
ۚ- indifferent
ۖ- ы unlisining qisqa talaffuz qilinadigan varianti

O'G'UZ lahjasining fonetik xususiyatlari:

- bu lahja shevalarida *a,y,γ,u,ύ,ύ,ύ,ύ,ύ,ύ,ύ,ύ,ύ,ύ* unlilarining qo'llanadi;
- o'zbek tili qipchoq shevalaridagi kabi kontrast just unlilar mavjud;
- qisqa va cho'ziq unlilar farqlanadi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho'ziq unlilar (birlamchi cho'ziq unlilar) mavjud: at (hayvon) - *a:d* (ism), ot (o'simlik) - *o:t* (olov);
 - dastlabki bo'g'inda e unlisi ə unlisiga o'tadi: *gəl* (kel), *dədəv* (dedi), *bərdəv* (berdi);
 - *-day* qo'shimchasidagi ə unlisi ь unlisiga o'tadi: *shyndəv* (shunday), *byndəv* (bunday)
 - so'z boshida t undoshi jaranglashadi: *dəl* (til), *dyn* (tun), *dəp* (tep), *dy:sh* (tush);
 - so'z boshida k tovushi jaranglashadi: *gəttəv* (ketti), *gəl* (kel), *gy:n* (kun), *gö:z* (ko'z);
 - q va g' undoshlari k va g undoshlariga moyil talaffuz etiladi: *q(k)anv* (qani), *q(k)andaɪ* (qanday), *g'(g)arvı:p* (G'arib), *dag'(g)la:* (tog'lar);
 - "bol" fe'lining boshidagi b undoshi tushib, "ol" tarzida talaffuz etiladi.
 - p, k, q undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: *йърът, тълкъ, чъвадв*;
 - ayrim shevalarda eskirgan e unlisi talaffuzda bor: *gel(kel), ber(ber), e:r(er)*.

◊ 1 - topshiriq. Berilgan matnni o'qib, fonetik xususiyatlariga ko'ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling. Adabiy tilga munosabatini belgilang va sharhlang.

Urganch shevasi

Гүррън

Мән он сәккъз йа:шымда қой бақарәдъм. Атам қассапчылық этәр эдъ. Мән қой бақмақа бър геткәннән он-ом беш гүндә бър гәләрәдъм. Бър гүн гәсәм, бъзләнъ еләтнъ аксақкальнъ йыпәкънъ оғыллаптыла. Бу аксақкальнъ Мәтмърат аксаққал дәрәдълә. Бу адам жаммапчылық(тўкувчилик) этәрәдъ. Бу оғылланџан йыпәкнъ мәнъ мойнъма ташадъла. Қой бақыштан гәлійәнәдъм, бу йыпәк мән гәмәстән үч гүм бурн оғылланџан; Бър гүнъ гешлькә гәлъп, оғыллап гетть, дәп тө:мәт ташадъла. Мәнъ атам вула вълән урышты, болмадъ. Соң йанқъ аксаққал йанына бър тода байланы альп, хана арз этмәкә барыптыла. Хан мәнъ чақъртърдъ.

♦ 2 - topshiriq. Berilgan matnni o'qib , fonetik xususiyatlariga ko'ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling.

Xorazm xalq qo'shiqlaridan

Айақымда зэрль кэвъш қадақль,
Деймә бала, мән бърәвә адақль,
Гүндә бары:н дәсәм, и:зъм сорақль,
Ахшам бары:н дәсәм, айла қараңь.

Намашшамнан чықкан айла батмағай,
Шул йарьма гәлән давлат қайтмағай,
Гәлми:н-гәлми:н бър гәльпсъс тойьма,
Доккыс ақшамғача данла атмағай.

♦ 3 - topshiriq. Berilgan matnni o'qib , fonetik xususiyatlariga ko'ra dialectal guruhini aniqlang va fonetik tahlil qiling .

Әртәк

Бър варәкән, бър йоғәкән, бър пашишань Айзада дъйэн қы:зы варәкән. бър гүнъ Айзада атась вълән шэтрәнч өйнүйдь, атасьнь утадь. атасьна иззә вәръп: "өйнъ өй әтәдағанам хатын, өйнъ йоқ. әтәдағанам хатын" дъйдъ. вуннан соң, атась „йенә ойнымъз" дъйдъ. Йенә:м ойныйдьла. Айзада йенә ойнап, атасьнь утадь. үчножь мәртә ойнағанда:м шунныйн боладь. Айзада йенә атасьна иззә вәръп: „өйнъ өй әтәдағанам хатын, өйнъ йоқ әтәдағанам хатын" дъйдъ. Айзадань атась уйалып чықып гетәдь. Пашиша қы:зынъ сөзынә дым қа:рь гәләдъдағын, сарайна варып: "жалладла, барьң, қы:зымни өлдъръң" дъйдъ. Пашишань бър да:на вәзи:рь варәкән, шу вәзи:рь "пашишайым, бълйэн бълып сөллыйдь, бълмәйэн гүлтып сөллыйдь, навчун өлдърәмъс, сәвәпъынъ айтың!" дъйдъ. Пашиша боған гәпнъ айтадь. Да:на вәзи:рь вунныйм болса, өз қы:зыңызны өлдъръп нәтәсъз, өлдърмъйн бър да:ва:наға бәрәмъс, жазасынъ тартып йүръйвәрсън" дъйдъ,

Amaliy mashg'ulot 18.

Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlarini aniqlash

1-topshiriq.

1) E. Samandarovning „Daryoni yo'qotgan qirg'oq” romanida keltirilgan dialogda dialekta leksemalarni aniqlang?

„Ichkaridan Anvar chiqdi. Nima bo'layotganini angshara olmay serryib turdi.

- Voy, anavi olvolini ko'ring, - dedi Qumrixon o'rnidan turib.
- Olvoling nimasi?
- Olvoli de, huv ana.
- Chiyani aytasanmi?
- Qumrixon bog'istoncha chiya so'ziga tushunmadni.
- Olchami?
- Ha, olvoli yegum kelutti.
- Ma, Qumri, -dedi. Qancha bir hovuch olchani uzib.”

2) Abdullaxonovning „To'fon” romanidan keltirilgan quyidagi matnni o'qing va matndagi dialektal so'zlarni leksik va morfologik tahlil qilib chiqing?

„Shu vaqt ko'cha eshik taraqlab ochildi-yu ostanada o'n yoshlardagi maykachan, qop-qora bola paydo bo'lidi:

- Akamullo, Akamullo, sizzi yo'qloshopti, idoraga yo'qloshopti.
- Nima gap?
- Hojar ayani bachasi sahroda borkan ekan... Bo'ronda qolgan ekan... Qaytib kelmopti... So'g'in Xo'janazar akoning duxtori bo'ronga qolip o'lipti.
Hoshim yugurganicha chiqip ketti. Mahmuda bila Mohidil bir-biriga hayron qarab qolishipti.”

2-topshiriq

Tog'ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romanidan parcha. Ushbu parchada keltirilgan dialektizmning turlarini aniqlang.

1. Kun qiyomdan-qiyom bo'ladi.

Yo'lidan Salohiddin bo'yrachi o'tadi.

Bobomiz bo'yrachini gapga soladi.

-Sizdan oldin ashiyoqqa bir balo o'tdi, -deydi bobomiz.

Salohiddin bo'yrachi ariq o'ngida oyoq iladi.

-Ajina bo'lib ajina bo'lmaydi, odam bo'lib odam bo'lmaydi, -deydi bobomiz.

2. Onamiz hovuz boradi. Hovuz bo'yida ayollar bilan guringlashadi.

Ayollar biri qo'yib biri aytadi.

-Burnog'i kecha tegirmon oldida ikkita qizilni bo'g'izlab ketibdi.

-Ikkita-da gapmi, Xayitkalni jarida besh-oltitasini olib ketibdi.

Shunda men otam qani deya ingillayman.

To'lib-toshib turmush onamiz cho'rt egiladi.

-Ishtonimni ichida! Eshitdingmi deydi.

3-topshiriq

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridan keltirilgan ushbu parchalarni leksik-fonetik jihatdan tahlil qiling.

1.-Zaril ish bilan kelib edim, rais bova.

-Zaril bo'lsa, kecha maylisda aystsangiz bo'lardi.

-Ro'zg'or ishi, rais bova.

-Ro'zg'or ishi bo'lsa, ana, hamsoyamiz, devordan bo'y lab o'tsangiz ham bo'lardi. Xo'sh, nima gap ekan, aytin qani, hamsoya."

2." Ayolimiz eshik orada donlamish tovuqlarni qarg'ab-qarg'ab haydadi. Ayolimiz satilni yerga darang-durunglatib tashladi..."

3. Olti g'o'lalik sudrama arava ezilmayman degich kesaklarni-da ezdi. Barmoqday-barmoqday o'nta tishlik sudrama arava ketmayman degich qatqaloqlarni-da ketkazdi. Sixmola tegmay qolmish chet-chetlarni ketmon bilan havorladim..."

4. Men mana bunday to'ynoma tarqatib-tarqatib to'y qilib edim:

Atirgul hidlari olamga ketdi,

Quvnoq yoshligimiz voyaga yetdi.

Hatto tengdir bo'yimiz bo'yga

Sizlarni taklif etamiz to'yga!

5.-Siz momayning gapiga qulog solmang, o'rtoq Jamoliddinov!-dedi Ideologiya.

6.-E, qirilib qirg'inni oldidan ketsin, bundaychikin qahramon!

7.-O, tem bole, oqtuproq!-dedi ayol.

-Shunday-shunday,-dedim

8."Men bosh-adoq tanapo'sh kiydim. Rezina etik kiydim".

9." ... suv bilan svjni farqi bor-da. Masalan, hovuz suv g'ozsiz suv bo'ladi. Odam hovuz suvdan ichsa-suv ichganday bo'lmaydi".

10. "Bolalar bilan yotoq odida bo'ysira bo'laman..."

11. "Bir hafta o'tadi, ikki hafta o'tadi. Azzanch kuchanmayin-o'z kuchimdan ziyod terolmayman..."

12. Tikka tura berib, uyqularim kelib ketadi.

-Ertaminan g'ayrat qilaman,-deya so'z beraman.

13. Hufton vaqt-hufton vaqt guzardan achchiq-achchiq baqiriq-chaqiriq keladi. Bobomiz nima gap, deya chopqillab-chopqillab boradi. Guzar olato'polon bo'ladi. Guzar olatasir bo'ladi...

14. Saraton jingirtob-jingirtob kuydirmish bir mahal yo'lidan ajabtovur ovozlar eshitiladi...

15. Anavindan ber,- dedim.

-Shlyapa? Razmer? Razmer?

-Razmer deb o'tirasanimi, birovini ber-da qo'y-da!

16. Shoirlar o'qariq adog'ida oyoq ildi. Shoirlar oyoqlibos qoqdi. Shoirlar cholvor qoqdi. Shoirlar ko'yak pufladi...

VI. KEYSALAR BANKI

Modul bo'yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

Namuna:

O'quv predmeti: O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

Mavzu: SHEVALARDА NIMAGA LAKUNALAR BOR ?

Keysning asosiy maqsadi: Talabada mustaqil fikrlashni rivojlantirish

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- 1) Talabada o‘zbek shevalari tuzumi haqida tasavvur uyg‘otish;
- 2) Voqealrofidiagi muammolarni shakllantirish;
- 3) Haqiqiy muammoni topa olishga o‘rgatish;

Ushbu keysni muvaffaqiyatlari amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:

Talaba bilishi kerak: O‘zbek shevalari leksikasini bilan o‘qish, shevaga xos xususiyatlarni sinchiklab o‘rganish.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- 1) o‘zbek shevalari leksikasini mustaqil o‘rganadi;
- 2) muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
- 3) fikrlarni ilgari suradi;
- 4) ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi;
- 5) o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- 6) o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;
- 7) ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:

- 1) kommunikativ ko‘nikmalarga;
- 2) taqdimot ko‘nikmalariga;
- 3) hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga;
- 4) muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovning “O‘zbek dialektologiyasi” -Tosh.1978 yil.
- 2) D. Abdurahmonov va boshqalar. “O‘zbek shevalari leksikasi” – Tosh, 1991yil.

Keysning texnologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan tavsifnomasi:

Keysning asosiy manbai hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti o‘zbek shevalari leksikasi. Bu tashkiliy keys bo‘lib, ma’lumotlar vaziyat va savollar asosida tuzilgan. Hajmi qisqa, tizimlashtirilgan, treningga mo‘ljallangan, o‘quv mavzusini bo‘yicha bilim va ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra, keys muammolarni taqdim qilishga, hal etishga, tahlil qilish- va baholashga mo‘ljallangan. Keysdan “O‘zbek dialektologiyasi” kurslarini o‘tishda foydalanish mumkin.

Kirish qismida shevalar leksikasi lakunalari haqida ma’lumot beriladi.

Lakuna(lot. “bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy”; frans. lasuse “bo‘shliq, bo‘sh joy”) –biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘limgan so‘z va so‘z birikmalari. Lakunalar

qiylaslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘limgan so‘zlar bo‘lib, ular, asosan, tillarning qiyosida seziladi. O‘zbek shevalarida kasb-kor, ijimoiy, xususiyat va hakozo mavzu guruhida uchraydigan ba’zi bir so‘zlarning adabiy tilda varianti mavjud emas. Bunday so‘zlar adabiy tilda so‘z birikmasi yoki gap bilan beriladi. Shunday so‘zlarni qanday tarzda adabiy tilga o‘zlashishi va leksikografiya tarkibining kengayishi uchun xizmat qilishi haqida fikr yuriting.

II. AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

2.1. Talabalarga yo‘riqnomalar

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyalar
1.Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishish	Keys bilan tanishish. Vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun mavjud axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmaslik.
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	<p>Ma’lumotlarni yana bir marta diqqat bilan o‘qib chiqish. Muhim satrlarni belgilash. Bir xatboshidan ikkinchisiga o‘tishdan oldin uni ikki-uch marta o‘qib, mazmuniga kirib borish. Keysdag‘i muhim fikrlarni qalam yordamida belgilash.</p> <p>Vaziyatni kuzatib, yosh mutaxassis berayotgan axborot mazmunini tiklashga harakat qilish. Ariza matnida axborot bayon qilishda yo‘l qo‘yilgan xatolikni topishga intilish.</p>
3.Muammoli vaziyatni tahlil qilish	<p>Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatni jalg qilish.</p> <p>Asosiy muammo: Lakunalarning o‘zbek tiliga kirishiga ta’sir qiladigan qanday omillarni bilasiz ?</p> <p>Quyidagi savollarga javob berishga harakat qilish.</p> <p>Adabiy tilga lakunalarning aynan muqobil variantlari bo‘lmasligi sabablarini tushuntiring</p> <p>Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlash. Muammoning asosiy mazmunini ajratib olish. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holatini aniqlash, asosiy qirralariga e’tibor qaratish, muammoli vaziyatning barcha tomonlarini tahlil qilish.</p>
4.Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirishga kirishish. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqish, muqobil vaziyatni yaratish. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olish, muammoning aniq yechimini topish. Jadvalni to‘ldirish. Keys bilan ishslash natijalarini yozma shaklda ilova qilish

2.2. “Muammoli vaziyat” jadvali

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

2.3. Keys bilan ishslash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys – stadi uchun yozma ish talablari: 1. Ish A4 standartdagи varaqning bir tomonida (2-varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak. 2. Yozma ishni jihozlash tartibi: 1) birinchi betda, o'ng tomonda talaba ismi, sharifi va guruhini yozish; 2) varaqning markazida keysning mavzusini yozish; 3) keyin esa keys bilan ishslash natijalari tezis shaklida yoziladi.

2.4. Keys bilan ishslash qoidalari.

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda (bir varaqdan bir necha yuz varaqgacha, tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi – tahlilga aloqasi bo'limgan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida: 1) taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang; 2) vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin; 3) harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring

2.5. Keys bilan ishslash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan (mak. 0,6 b.)	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan (mak. 0,4 b.)	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan (mak. 1 b.)	Jami (mak.2 b.)
1				

2.6. Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Guruh faol (mak. 1 b.)	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi (mak. 4 b.)	Javoblar to'liq va aniq berildi (mak. 5 b.)	Jami (mak. 10 b)
1				

8-10 ball – a'lo

6- 8 ball – yaxshi

4- 6 ball – qoniqarli

0 -4 ball – qoniqarsiz

2.7. Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalarning ishni bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lishi.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratilishi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchining ularga yo'riqnomasi berishi.
6. Muloqotda bo'lish, o'z fikrini erkin namoyon etish.

2.8. O'quv-uslubiy hujjatlar

7. **Vaziyatni aniqlashga to'siq bo'ladigan holatlar**
8. **Empirik bilimga ustuvorlik berish-** faqat sezgi a'zolari asosidagi bilimlarni haqiqiy bilim deb bilish, mohiyatni ko'rishga intilmaslik.
9. **Falsafiy metodologiyani, dialektikani pisand qilmaslik** – borliq hodisalarini ilmiy o'rganishda falsafiy metodologiyaning keraksizligi haqidagi aqidaga tayanish, bilishning nazariy va amaliy turlarini farqlamaslik, dialektik tafakkurga ega emaslik, falsafani "falsafa falsafa uchun", "falsafa o'zida" tamoyili asosida baholash.
10. **Infatalizm** – bir ta'limot natijalarini boshqa bir ta'limot tamoyillari asosida o'lhash va ulardagi ziddiyatlarni tushunib yetmaslik.

11. III.O'QITUVCHI TOMONIDAN KEYSNI YECHISH VA TAHLIL QILISH VARIANTI

12. **1. Keysdagi asosiy muammo:** Lakunalarning adabiy tilda muqobil variantlarining yo'qligi.
13. **Muammoli vaziyatni yechish yo'llari:** Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish. Keys bilan tanishib chiqish. Lakunalar haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish. Muammoni yechish darajasini aniqlash.
14. **2. Berilgan vaziyat bilan tanishish.** Ma'lumotlarni yana diqqat bilan o'qib chiqib, muhim bo'lgan satrlarning tagiga chizish. Bir xatboshidan ikkinchisiga o'tishdan oldin uni ikki-uch marta o'qib, mazmuniga kirib borish. Keysdagi muhim fikrlarnini aniqlash. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatimni jaib qilish:
15. **3. Muammoli vaziyatning tahlili.** Muammoli vaziyatni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Sheva lakunalarining yuzaga kelish holati	O'zbek shevalarida lakunalarning adabiy tilda varianti yo'qligi	Lakunalar adabiy tilga o'zlashishi savoliga javob izlash kerak bo'ladi.

4. **O'tkazilgan tahlillar va natijalar:** Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holati aniqlangandan so'ng, muammoning asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, "Klaster" usulini qo'llaymiz.



Yakuniy xulosa

Sheva lakunalarini o'zbek adabiy tiliga o'zlashtirish orqali lug'at boyligimiz oshadi. Asrlar davomida xalq tilida qo'llanib kelgan bu so'zlar unutilib ketmay, mumtoz adabiyotimizda qo'llangan ba'zi bir bahsli so'zlarning yechim topishida muhim rol o'ynaydi.

VII. MUSAQIL TA'LIM MAVZULARI

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash; talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan mazkur fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilaniladigan o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish; masofaviy (distansion) ta'limni tashkil etish

Nº	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soati
1	O'zbek shevalarining o'rganilish tarixi.	2
2	Shevalarni tadqiq qilish usullari	2
3	O'zbek shevalari tasnifi.	2
4	Transkripsiya va uning turlari.	2
5	Transkripsyani o'zlashtirish va sheva materiallarini qayd etish.	2
6	Shevaga xos matnlarning fonetik xususiyatlari.	2
7	Shevalarda fonetik hodisalar.	2

8	Fonetik qonuniyatlar.	2
9	Ma'lum bir sheva lug'atini tayyorlash.	2
10	Shevaga oid matnlarning leksik xususiyatlari.	2
11	Shevalararo moslik (variant) masalasi.	2
12	Shevaga oid matnlarning morfologik xususiyatlari.	2
13	Shevaga oid matnlarning sintaktik xususiyatlari.	2
14	O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga xos xususiyatlari.	2
15	O'zbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlari.	2
16	O'zbek tilining o'g'uz lahjasiga xos xususiyatlari.	2
17	O'zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning vujudga kelishi va rivojlantirilishi.	2
18	O'zbek shevalari dialektologik atlasi ustida ishlash.	2
	Jami	36

VIII. GLOSSARIY

№	O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izohi
1.	O'zbek dialektologiyasi	Узбекская диалектология	Uzbek dialectology	o'zbek shevalarini ilmiy ravishda o'rganadigan fan.
2.	Sheva	говор	pronunciation, accent, dialect	o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.
3	Dialekt	диалект	dialect	o'zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.
4	Lahja	диалект	dialect,	shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo'lgan dialektlar jami.
5.	Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi	Карлукский диалект	Karluk-chigil-uygur dialect	o'zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug'-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.
6.	Qipchoq lahjasi	Кипчакский диалект	Kipchak dialect	o'zbek tilining qipchoq urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.
7.	O'g'uz lahjasi	Огузский диалект	Uguz dialect	o'zbek tilining o'g'uz urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.
8.	Tavsifiy(sinxron) metod	синхронный метод	descriptive method	shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

9.	Qiyosiy-tarixiy metod	сравнительно-исторический метод	comparative historical method	tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa yondash tillarga qiyoslab o‘rganish metodi, bu metoddan shevalarni o‘rganishda ham foydalaniladi.
10.	Velarizatsiya	веляризация	velarization	undoshlarning qattiqlashishi.
11.	Diakritik belgi	диакритический знак	diacritic mark	harflarga qo‘srimcha ravishda qo‘yiladigan belgilar, ishoralar.
12.	Dialektolog	диалектолог	dialectologist	shevashunos, shevani o‘rganuvchi olim.
13.	Indifferent	индифферент	indifferent	oraliq tovush.
14.	Palatalizatsiya	палатализация	palatalization	undoshlarning yumshoqlashishi.
15.	Transkripsiya	транскрипция	transcription	yozuvning maxsus turi
16.	Transliteratsiya	транслитерация	transliteration	matnni bir yozuv tizimidan ikkinchisiga ko‘chirish, masalan, kirildan lotinga.
17.	Transkripsion belgi		transcriptional mark	har bir nutq tovushi uchun qo‘llaniladigan harf.
18.	Fonetik transkripsiya	Фонетическая транскрипция	Phonetic transcription	konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan ishoralar tizimi.
19.	Fonemistik transkripsiya	Фонематическая транскрипция	Phonemic transcription	tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.
20.	Vokalizm	вокализм	vocalism	unlilar tizimi.
21.	Konsonantizm	консонантизм	konsonantism	undoshlar tizimi.
22.	Fonetik qonuniyat	Фонетическая закономерность	phonetic rules	o‘zbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bog‘liq holda yuz beradigan fonetik hodisadir.
23.	Singarmonizm	сингармонизм	singarmonism	unlilar uyg‘unligi.
24.	Lingval singarmonizm	лингвальный сингармонизм	lingual singarmonism	old qator va orqa qator unlilar uyg‘unligi
25.	Labial singarmonizm	лабиальный сингармонизм	labial singarmonism	lablangan unlilar uyg‘unligi.
26.	Assimilatsiya	ассимиляция	assimilation	unli va undoshlarning o‘xshab ketishi yoki birlariga singishi.
27.	Dissimilatsiya	диссимилияция	dissimilation	undosh tovushlardagi noo‘xshashlik.
28.	Unlilar cho‘ziqligi	долгота гласных	length of vowels	unlilarning boshqa tovush ta’sirida va uning ta’sirisiz cho‘zilishi.
29.	Diftong va diftongoid	дифтонг, дифтонгоид	diphthong and diphthongoid	bir tovushda ikkinchi bir tovush ekskursiyasining yoki rekursiyasining qatnashishi.
30.	Kontrast unli	контрастность	Contrast vowel	old qator va orqa qator

		гласных		xususiyatlariga ko‘ra zidlangan unlilar.
31.	Tovush mosligi	согласование звука	correspondence of sound	so‘z ma’nosiga putur yetkazmaydigan tovush o‘zgachaliklari.
32.	Shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari	морфологические и синтактические особенности говора	morphological and syntactic peculiarities of dialects	o‘zbek shevalaridagi so‘z turkumlari va so‘z tarkibi hamda uning sintaktik tizimi.
33.	Shevalarda grammatik son kategoriyasi	грамматическое число категории говора	the category of grammar plurality in dialects	shevalardagi birlik, juftlik va ko‘plikni birlashtiruvchi tushuncha.
34.	Shevalarda egalik kategoriyasi	категория принадлежности говора	the category of possessive in dialects	shevalardagi egalik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.
35.	Shevalarda kelishik kategoriyasi	категория падежа в диалектах	case category in dialects	kelishik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.
36.	Shevalarda so‘z yasalishi	словообразование в диалектах	the word formation in dialects	shevalardagi yangi so‘z hosil qilish tizimi.
37.	Gap	предложение	sentence	fikrni ifoda qiluvchi eng kichik til va nutq birligi.
38.	So‘z birikmasi	словосочетание	phrase	ikki mustaqil so‘zning o‘zaro aloqaga kirishuvi.
39.	Bitishuv	Диалектный словарь	contiguity, parataxis	ikki mustaqil so‘zning grammatik ko‘rsatkichlarsiz birikuvi.
40.	Boshqaruв	управление	government	hokim so‘zning talabiga ko‘ra tobe so‘zning tushum va vositali kelishiklarda hamda ko‘makchilar bilan qo‘llanishi asosida aloqaga kirishuvi.
41.	Moslashuv	согласование	conformance	qaratqich va qaralmish munosabati.
42.	Inversiya	инверсия	inversion	gap bo‘laklarining odatdagи tartibining buzilishi va u shu gapdagi bo‘laklarining gapdagi mavqeiga ta’sir etmasligi.
43.	Dialektal so‘z	диалектный словарь	Dialectal word	ma‘lum shevagagina xos bo‘lgan so‘z.
44.	Shevalarning leksik tarkibi	лексика диалектов	Lexic structure of dialects	ma‘lum bir shevadagi barcha so‘zlar yig‘indisisi.
45.	Jargon	жаргон	slang	ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos so‘zлari. Masalan, tartibot, savdo xodimlari.
46.	Leksik qatlam		lexic layer	tildagi (shevadagi) tub va o‘zlashgan so‘zlarning guruhlari.
47.	Atlas	атлас	Atlas	sheva, dialekt, lajjalarni turli

				ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan o'quv quroli.
48.	Izoglossa	изоглосса	isogloss	til, sheva faktlarining teng kelish holatlari.
49.	Lingvistik geografiya	лингвистическая география	linguistic geography, dialect geography	o'zbek shevalarini o'rganishning bir metodi, shevalardagi til faktlarini maxsus o'rganadigan soha.
50.	Lingvistik karta	лингвистическая карта	linguistic map	izoglossalar joylashtirilgan karta.
51.	Til landshafti	ландшафт языка	linguistic landscape	izoglossalarning joylashish xususiyatlari.
52.	Innovatsiya	инновация	innovation	izoglossalarning tarqalish markazi.
53.	Adabiy til	литературный язык	literary language	me'yorlashgan til.
54.	Adabiy tilning shakllari	формы литературного языка	forms of literary language	adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari.
55.	Tayanch dialekt	базисный диалект	basic dialect	adabiy tilga biror jihatdan, ya'ni fonetik yoki morfologik jihatdan asos bo'ladigan dialekt, sheva.
56.	O'lik til	мёртвый язык	dead language	muomaladan chiqqan til.
57.	Shevalarni tasnif qilish	классификация диалектов	classification of dialect	shevalardagi o'xhash va noo'xhash xususiyatlarni hisobga olib, ularning guruhlarini belgilash.
58.	Metisatsiya	метисация	metisation	qardosh tillar va shevalar chatishuvi.
59.	Gibridizatsiya	гибридизация	hubridization	qardosh bo'limgan til va shevalarning aralashib ketishi.
60.	Dialektal so'z	диалектный словарь	Dialectal word	ma'lum shevagagina xos bo'lgan so'z.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: "O'zbekiston", 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13- maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida "gi PF-4797-son Farmoni.
4. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
6. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

7. Ashirboyev S.O‘zbek dialektologiyasi. – T.: ”Navro‘z”, 2016.
8. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
9. Enazarov T., Karimjonova V. va ɻoshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

Qo‘sishma adabiyotlar

1. Aliyev A.Yu., Nazarov K.N. O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: 1976.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi (Yangi o‘zbek yozuvida). – Toshkent: 2011.
3. Begaliyev M.Q. O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
4. Dialectology. J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press.- 2004.
5. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: 1991.
6. Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va dialektlari. – Toshkent: Fan, 1963.
7. Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977.
8. Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2005.
9. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent: Muhammarr, 2011.
10. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
11. Reshetov V.V. O‘zbek dialektlarini monografik o‘rganish // O‘TA.1960. 1-son.
12. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1962.
13. Reshetov V.V. O‘zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O‘TA, 1966.
14. Shoabdurahmonov Sh.Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1962.
15. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? – Toshkent: Fan, 1981.
16. Shoimova N. Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi. – Qarshi: Nasaf, 2000.
17. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. 1-qism. – Toshkent: Fan, 1957.
18. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. 2-qism. –Toshkent: Fan, 1960.
19. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.
20. O‘zbek shevalari leksikasidan materiallar to‘plash uchun so‘roqlik. – Toshkent: Fan, 1989.
21. O‘zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1984.
22. O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1991.
23. Dialectology. J.K.Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press. 2004.
24. Perceptual Dialectology. Dennis R. Preston. 1989.
25. Manual de dialectologia hispanica: El espanol de Espana. MANUAL Alvar. 1996.
26. Dialectology. J.K.Chambers. 1980
27. The Langeages of Chiba. Robert Ramsey. 1987
28. Storia Delle Lingue Letterarie Greche. 2008
29. The study of dialect. K.M.Petyt. Westview Press, 1980
30. Introduction to Folklore. London, 2008.
31. American Material Culture and Folklife. Penn State Harrisburg, 2011.
32. Graham Anderson. Greek and Roman Folklore. The USA, 2006.

